

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // info@marifat.uz // 2026-yil 19-avgust chorshanba №33(9618)

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



1–4-sinflarda jismoniy tarbiya fanini qaysi toifadagi pedagoglar o'qitishi masalasi turli talqinlarga sabab bo'lmoqda. Dars soatlarini taqsimlashda yagona yondashuv bo'lishi uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy izoh berishi maqsadga muvofiq. Kimlar dars o'tishi mumkinligi, malaka talablari va dars soatlari taqsimlash mezonlari aniq belgilansa, bu adolat va ta'lim sifatiga xizmat qiladi.

Sayyora YORQULOVA



Bolam kitob o'qimaydi, deymiz-u uyimizda bittagina kitob javoni yo'q. Boringni ham "Bogema", "Madonna"lar bilan to'ldirib tashlaymiz. Qizlarimizda hayo, yigitlarimizda qat'iylilik yo'q deymiz-u erkak o'qituvchilarni maktablarga "sig'dirmaganimiz"ni xayolimizga ham keltirmaymiz. O'qituvchi bolamizni ursa, uni sudga beramiz-u repetitor ursa, "barakalla" deymiz. O'quvchi daftariga xato yozsa xatosini shu zahoti tuzatamiz-u ko'chalardagi bannerlarning xatosiga yillab ahamiyat bermaymiz.

Erkinjon YARASHEV

OQQAN DARYO...

11-bet

TOLIBI ILM
KERAK!

2-6-betlar

*Har vaqtgi, ko'rgasen mening so'zumni,
So'zumni o'qub, sog'inasen o'zumni...*

Bobir

1

Yuz-xotir bir bo'ladi, ikki bo'ladi, keyin o'ladi. Yuz-xotir qilmasdan aytar esam, bugun bir g'alatki... Holati ulamo narxi – bir tanga, qadri – mis chaqa.

Yunon rivoyatlarida aytilishicha, miloddan avvalgi davrlarda Memfis-u Liviya hukmdori o'z saroyida eng kuchli olimlar bo'lishi uchun qop-qop oltin tangalar sarflagan. Bir davlat podshosi ikkinchi davlatga elchilar orqali jumboqlar, masalalar yuborgan. Ikkinchi davlat podshosi uning savollariga javob topish uchun olimlarga murojaat qilgan. Topolmasa, ushbu davlat xiroj to'lagan, qullik tamg'asi bosilgan. Ezop o'sha zamonlarning guvohi. Garchi u qul esa-da, fikri ozod, zikri odamlar tilida bo'lardi. Qadim Rimning buyukligini shoirilar, notiqalar, olimlar-u sarkardalarning savodi belgilagan.

Olim, shoir-u fozillar xalqlar o'rtasida qon to'kilishidan oldin o'rtaga chiqardi. Xalq-u hukumat ularga ishonardi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarining “Ikkinchi tabaqa shoirilar” bobidan bir voqea: “*Sulton(Sanjar) mazkur yili, Otsizni(Xorazmshoh) bartaraf etish uchun Xorazmga qo'shin tortdi. Anvariyo o'sha yurishda sulton(Sanjar)-ga mulozim edi. Hazorasp atrofiga yetishib, qal'ani o'rab olganlaridan so'ng, Anvariyo mana bu ruboiyni insho qildi va nayzaga bog'lab qal'aga otdilar:*

*Ey shoh, bor mulki jahon – mavjudot seniki,
Va istiqboli jahon – koinot seniki.*

*Hamla qil-u sen bu kun Hazoraspni ol,
Ertaga Xorazm-u yuz ming ot seniki.*

Rashiddin Vatvot qal'ada, Otsizning qoshida edi, Anvariyo javob tarzida mana bu baytni yozdi va uni ham (o'qqa bog'lab) sulton lashkargohiga qarata otdilar:

*Bo'lsang hamki Rustam kabi, ey shoh pahlavon,
Hazoraspdan bir eshak ham olmog'ing gumon.*

Sulton (Sanjar) Vatvotdan darg'azab bo'ldi va qasamyod qildikim: “Agar Vatvot qo'limga tushsa, (uni) yetti pora qilaman”, deb. Rashiddin Vatvot (ilgari) aytgan mana bu qasida ham sultonning esida edi:

*Taxti mulkka keldi Otsiz – ul g'azabkor nayzaboz,
Topdi Saljuq davlati-yu xonadoni inqiroz.*

Sulton ko'nglida eski kiyna ham bor edi. Qamal cho'zilib ketgach, Otsizning qarshilik ko'rsatgudek imkon qolmadi va tunda qal'ani tashlab qochdi. Hazorasp qal'asi sulton tomonidan fath etildi. Vatvot yashirindi. Jarchilar va taftishchilar uni topib, sulton huzuriga keltirdilar. Sulton uni yetti pora qilishni buyurdi. Vatvot, sulton devonining munshiysi, nadimlik mansabiga yetishgan Muntahabiddin Badi' kotibga maktub yuborib, undan o'rtada turib, (sultondan) gunohini so'rab berishni iltimos qildi. Muntahabiddin sultonga arz etdi: “Vatvot (kanareyka) bir kichik qushki, uni yetti pora qilib bo'lmas. Ey, jahon sultoni, buyurgilim, uni ikki pora qilsin”. Sulton xanda qildi, bu latif lutf tufayli Vatvot qonidan kechdi va dedi: “Ketaversin, uni ikki qilib ham o'ltirmaylik, uning bunga ham quvvati yo'qdir”. (Shundan keyin) Vatvot Termizga ketib qoldi...”.

Gohi urushni ham, sulhni ham shoir so'zi belgilaydi. Temuriy shahzodalar zamonida bayt bilmagan mirzo – mirzo sanalmagan. Bobir ham temuriy shahzoda; shohona baytlar bilgan, shohona baytlar bitgan:

*Ul xatki, men anda seni yod etgaymen,
Ko'z oqida, koshki, savod etgaymen,
Kirpiklardin anga qalam rost qilib,
Ko'z qorasidin anga midod etgaymen.*

Necha yuz yilki, olimlar Bobirning hayoti va ijodini o'rganishadi. Uni o'rganishni u olim boshlab bergan, bu olim boshlab bergan, deyishadi. Bobirning hayoti va



ijodini o'rganishni hech qaysi olim boshlab bermagan. Bobirning o'zi – “Bobirnoma” asari orqali boshlab bergan. U nafaqat shohona baytlar egasi, nasri ham shohona.

Dunyo adabiyotidagi istalgan nasriy asar bilan solishtirib ko'rsa, bunga amin bo'ladi kishi. Nobelni olgan yozuvchilar bo'ladimi, sayohatnoma yozgan yozuvchilarmi, tasvirni zo'r qo'llaydi deganimi, sarguzashtni zo'r yozadi deganimi, tarixiy asarlar bo'ladimi, farqi yo'q. “Bobirnoma” alohida, balandda turadi. Zahiriddin Muhammad Bobir o'zbek nasrining asoschisi. U piri murshidi Xo'ja Ahror Valiyning “Volidiya” asarini turkchaga o'girib, Samarqand maktabi nazaridan o'tishi uchun maxdumi A'zam Dahbediyga yuborgan edi. Ilk she'rlar devonini ham Kobuldan Samarqandga yuborgan edi. Maxdumi A'zam Dahbediy “Volidiya”ni o'qib chiqqach, unga javoban Bobirga bag'ishlangan “Bobiriya” risolasini yozib yuboradi. “Bobirnoma” yozilishiga qay darajadadir turtki bo'lgan shu asar sharafiga bu asarni “Bobiriya” deb atagan, deyishadi. Keyin “Vaqoye” deb atadi. Keyin “Bobirnoma” nomi ila muhrlandi. “Voqeoti Bobir”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Bobiriy”, “Tabaqoti Bobiriy”, “Tavorixi Bobiriy”, “Tarix” degan nomlar bilan ham mashhur bo'lgan. Ayrim olimlar esa chig'atoy tilida yozilgan deb yozdi. Vikipediaga ham shunday kiritishdi. Chig'atoy tili degan til yo'q. Chig'atoy degan ism, chig'atoy degan ulus bor. Turk tilida yozilgan. Bu asar haqli ravishda “Bobiriya” edi. Bu asar buyuk sarkarda, arzimagan qo'shin bilan ulkan imperiya qura olgan podshoh Mirzo Bobirning alohida “davlati”. Dunyo bo'yicha eng ko'p o'qilgan, tarjima qilingan, eng ko'p tarqalgan, eng ko'p o'rganilgan asarlardan biridir. Bu asar yillar davomida shohlar, shoirilar, sarkardalar, kotiblar, harbiylar, arxeologlar, zoologlar, sharqshunoslar, antropologlar, botaniklar, tarixchilar, geograflar, tarjimashunoslar, pedagoglar, sayohatchilar, tabiatshunoslar, elshunoslar, tilshunoslar, xaritashunoslar uchun ham, oddiy kitobxonlar uchun ham eng sevimli, eng kerakli asarlardan biri. Qo'lda qilich va qalam, boshida toj-u Vatan tuprog'ini oyoqyalang kezman buyuk shaxs, bu – Bobirdir. Xudo ham sevib barcha ne'matlarin undan ayamadi. Eng baland qorlarni, eng issiq yozlarni ko'rdi. Eng baland cho'qqilardan oshdi, eng chuqur daryolarda suzdi. Eng qudratli shohlar bilan to'qnashgan bo'lsa, yakkama-yakka karkidon bilan kurashga tushdi. Unga yana bir baxt in'om etilgandi, bu – dardni ayta olish baxti, qog'ozga tushira olish baxti. Dardni qog'ozga tushira olish Parvardigor tomonidan unga berilgan edi. Bu baxt Bobirga toj-u taxt baxtidan ko'ra shukuhliroq edi. 1526-yili Panipat maydonida Ibrohim Lo'dini, 1527-yili Rano Sangoni yengib, Bobiriylar imperiyasiga asos soldi. U Sekri shahrida-

TOLIBI

gi bog'ning ichkari qal'asida “Bobiriya”ni yozishga kirishdi...

“Bobirnoma” o'zbek nasrining barcha yozuvchilari suv olib ichadigan qudug'i, bu quduqda suv tugamaydi. Ulug' yozuvchilar ijodiga e'tibor berilsa, odatda umri oxirida yozgan asarlari o'z xotiralariga tayanib yozgan asarlaridir. Markesning “Mahzun ma'shuqalar yodi”, Abdulla Qahhorning “O'tmishdan ertaklar”, Tolstoyning “Iqornoma”si, Mishel Montanning “Tajriba”si... Shular kabi o'qigan asarlaringizni ko'z oldingizga keltiring. Yozilgan asarlardagi tasvirlarga e'tibor bering va “Bobirnoma”dagi tasvirlar bilan solishtiring. Bobirning inson tasavvuriga sig'dirmas darajada xotira egasi va yozuvchi sifatida dunyo adabiyotining istalgan yozuvchisidan o'ta baland yozuvchi bo'lganligini his qilassiz. Jahon adabiyotida qisqa gap bilan katta ma'noni ifodalay olishda unga teng keladigani yo'q. “O'n bir yoshimdin beri ikki ramazon iydini payopay bir yerda qilg'on emas edim...”. Butun hayotini, umrining sarson-sargardonligini birgina shu jumla ichiga sig'dirib keta olgan.

Bobir o'zbek nasrining mezonini belgilab turadi. O'lchov “Bobirnoma” bilan olinadi. Humoyunga yozgan maktubidagi mana bu so'zlari barcha kelgusi adiblarga panddir: “*Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qug'uchig'a*”. Bobir rostgo'y yozguvchi. Kalladan minora qurdirganini ham, yalang qolgani ham... ne bor esa, rost yozgan. Odamlarga yaxshi ko'rinish uchun o'z aybin bekitmagan. U o'ziga emas, so'ziga oro berib yozgan. “Yurak qoni bilan yozilgan asar” degan ibora bor adabiyotda. Bu iboraga xos asar “Bobirnoma”dir. U o'z “...o'tkan kunlarini tamom bayon qilgan...”. Dunyo adabiyoti tarixida manzara va inson portretini Bobirday chiza olgan biror yozuvchi yo'q. Har bir tasviri qisqa, aniq va lo'nda. Quyosh chiqqanda, tong payti quyosh qanday balandlikda turishini ham aniq qilib “*bir nayza balandlikda...*” kabi tasvir bilan ko'z oldingizga holatni, manzarani keltirib qo'yadi. Umarshayx mirzoni sizga shunday o'z holidan oynaga solib ko'rsatadi: “...past bo'ylyuk, tegirma saqqolliq, qo'ba yuzluk, tanbal kishi edi. To'nmi bisyor tor kiyar edi, andog'kim, bog' bog'laturda qornini ichiga tortib bog'latur edi, bog' bog'lag'ondin so'ng o'zini qo'ya bersa, bisyor bo'lur erdikim, bog'lari uzulur edi. Kiymakta va yemakta betakalluf edi, dastorini dastorpech chirmar edi... pokiza e'tiqodliq kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi...”. Amir Alisherning naqadar mag'rur inson bo'lganligini Bobir go'zal ifoda bilan shunday beradi: “...Mirzodin nima olmas, balki yilda mirzog'a kulliy mablag'lar peshkash qilur edi...”.

Navoiy shoirlik g'ururini sindirmagan, saroydan ilinj, narsa tilamagan. Manfaat istamagan. Buni Bobir teran anglagan holda ta'rif beradi. Tabiat manzarasiga keladigan esak, “**Vaqoi sanayi tis'a va tis'a mia**” (909-yil voqealari) bobini varaqlab, Kobul tasvirini qayta o'qing. Siz Kobulni ko'rish uchun Kobulga borishingiz shart bo'lmaydi. So'zda shunday tasvirlab qo'yganki, sizni yetaklab o'sha davr Kobulini to'liq aylantirib chiqadi. Har bir tumanining har bir daryosining har bir irmog'iga qo'shilib oqasiz, tabiat manzaralari-yu odamlarini tomosha qilassiz.

Uch qismga bo'lingan “Bobirnoma” jahon adabiyotining noyob durdonasi, ilk nasriy memuarda Osiyo va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil aniqlik bilan bayon qilingan. Olimlarimiz mansab uchun, mashhurlik uchun, ilmiy unvon uchun, maosh uchun aniqlikni ham tabdil qilishga o'tishgan. Tabdil – bu Bobir tilini yo'qotish. Yo'qotishga hissa qo'shish.

Temurbek tarixning oltin zarvaraqlariga shunday yozdirdi: “*Bizkim, maliki Turon, amiri Turkistonmiz. Turklarning bosh bo'g'ini va eng ulug'imiz*”. Ildizingni his etib o'ylab ko'rsang, saljuqlar-u Dashti Qipchoq o'zbeklari shox-u irmoqlarimizdir. Inchunin, Temurbek naslidan Mirzo Bobir ham turk. Turklarning bosh



ILM KERAK

bo'g'ini va eng ulug'laridan. Turkular "o" harfi o'rniga ko'proq "a" harfin talaffuz etishgan. "O" forslar talaffuziga ko'proq yotadi. Ayrim holda "e" harfi o'rniga "a" ishlatish saljuq turklariga xos. Bizda "e" harfi: "e", "yi" talaffuzi bobomeros, tildan ketmayajak. "Echki"ni ham "yichki" deb talaffuz qilishgan. Ingliz tilidagi "a" tovushi, "eye" diftongi bilan ifodalanadi. Eski o'zbek yozuvini o'rganayotgan paytim menga "qo'lyozmalarda qisqa unlilar yozilmagan" deb o'rgatishgan. O'zbekxon hech qachon "O'zbekxon" deb atalmagan. Bizim tilda "bek" degan qadim so'z bor. "Bak" degan qo'shimcha ham, so'z ham, so'z yasovchi ham, bog'lovchi ham yo'q. "Bek" so'zi arab imlosida "bk" yoziladi. Nima uchun Bobir yozgan "zbk" so'zini olimlarimiz "Bobirnoma"da "zbek" emas, "zbek" deb yozdi (Vahob Rahmonov tayyorlagan matnda "o'zbek" bo'lib keladi)? Mantiq bila o'ylansa, "Bobirnoma"da "zbek" emas, "zbek" deb yozilgan. Vahob Rahmonov esa nafaqat "Bobirnoma"ning o'zida, uning tabdilida ham "zbek" deb yozadi. "...o'zbeklar yurishlari tufayli hozirgi paytda buzilib ketgan" (12-bet). "O'ziga bek", "erkin" ma'nosini beradigan millat atamasi qachondan boshlab "zbek" deya qo'llanila boshlandi? Buni kim boshlab beryapti? Talaffuzi "e"ga kelishmaydigan millat vakillarini, yoki ularning til qoidalarini tushunsa bo'ladi, yo muallifning o'zi aniq qilib yozgan bo'lsa, tushunsa bo'ladi. Biroq o'zbek adabiy tilidan xabari bor, o'zbekchaga tili kelishadigan olimlarning bu ishini qanday tushunish mumkin?! Hirotidagi majlislardan birida "o'zbekcha" qo'shiq yangraydi (205-bet). Bobir "o'zbekcha" deb yozgan. Agar Bobir "zbek" deb yozgan taqdirda ham, tabdil degani hozirgi adabiy tilga o'girish ekan, bu so'z tabdilda "zbek" deb yozilishi shart edi. O'quvchilar ongini yo yaxshi, yo yomon shakllantirish olimlarga bog'liq.

"Tengri taoloning inoyati ila..." "Bobiriya"ni maza qilib, qiynalmay o'qiyman, tushunaman, anglayman. Biroq bugungi zamon tili bilan yozilgan, menga hamnafas yashayotgan ba'zi adabiyotlar, qarorlar, jurnal, gazetalarni o'qishga qiynalaman. Begona lahdada so'zlayotgandek tilim g'oldiraydi... "Bobirnoma"ni yana bir qayta o'qish ilinjida, asarni asl tilida qidirdim, topolmadim. Internetda duch kelmadi. Topganlarim bo'ldi, o'nlab qayta nashrlarni ko'rdim, internetda ham "Bobirnoma" ko'p, biroq u Bobir asari emas, Bobir tili emas. Tabdil qilingan, Bobirning tilini kesishgan. Bobirning so'zlarini olib tashlab, o'z so'zlarin urib tiqqan. Tabdil, sharh asar bilan birgama-birga, bitta kitobda chiqishi kerak izoh bilan, asar oxirida lug'atlari bilan...

Bular nima qilgan?! Butun xalqni, butun millatni, o'quvchilarni, talabalarni "mana bu so'zlarni Bobir yozgan" deb tabdil ila aldab o'tiribdi. Tabdilning o'zini nashr etgan. Sen tarbiyalayotgan avlod uning so'zlariga tushunmasa, Bobirda ne ayb. Bobir bilan oraliqdagi davr hali ikki ming, hatto ming yil emas. Hali tilimiz to'liq buzilib ketmagan, hali elimiz ichida, adabiyot ichida Bobir ishlatgan so'zlar yashab turibdi. Bu so'zlarni yana yashatish o'rniga, o'ldirish uchun ularga kim huquq berdi?! Ularning kasofatiga mening farzandlarim ham chalasavod bo'lib tabdil bila o'qishi kerakmi? Yo grammatikasiga tushunmadingmi? "Ushbu fursatlar Sulton Husayn mirzodini Badi'uzzamon mirzog'a va manga va Xisravshohg'a va Zunnung'a bir mazmun bila uzun-uzoq nishonlar keldi, ul nishonlar bu tarixqacha mendadur". Nesiga tushunmayapsan? Ega-kesimi joyida, o'z qadimiy til ildizimizga ega gap qurilishi. Gapirishni ilk o'rgangan ajdodlardan, O'rxun bitiklaridan, Qoshg'ariydan kelayotgan toza, tushunarli, turkka xos gap qurilishi. Hozirgi adabiyotimizda "mo'dim" yozarchi deb atalayotgan yozuvchilarimiznikiga o'xshab "amriqocha" gap qurilishi emas. "Bobirnoma" orqali butun dunyo turk tilining gap qurilishi, tasviri qanaqa ekanligidan xabardor bo'lgan. Asardagi so'zlarni o'zgartirish uchun senga kim huquq berdi?! Navoiymidinki, Bobirni tahrir qilsang... Tabdil betma-bet asar yonida yoziladi. Alohida kitob qilib "Bobirnoma" deb

nomlanmaydi. Yo'qsa u tarjima deyiladi. O'zbek tilidan o'zbek tiliga tarjima, tarjimon "falonchi pismadonchi-yev" deb yozish kerak. Bolalarga aslini o'qitish kerak, lug'at bilan o'qitish kerak, Bobirdan uzoqlashtirishdan maqsad nima?! Bugungi avlod Bobirdan uzoqlashdimi, kelajak avlodga Bobir begona bo'ladi. "Tengri rost kelturdi, yog'iy bosildi". Bobir shunday degan... Bobir yozgan so'zni o'chirib, o'rniga boshqa so'z yozish uchun inson qay darajada andishasiz bo'lishi kerak?! Bobir "Tengri" yo "Tangri" deb yozgan esa, sen uni o'chirib "Xudo" deb yozishingga kim huquq berdi?!.. Bobirning hindcha so'zlar ishlatgan joyi bor – ular "atama"lar! Yil voqealarini sarlavhada arabcha nomlaydi. Bu atay nomlangan! Harfni arab, lotin, kirill qilib o'zgartirish mumkin, lekin so'zni o'zgartirish asarning badiiy qiymatiga ta'sir qilishi haqida o'ylab ko'rilganmikan?..

Yuqorida aytilganidek, "Bobirnoma" siyosat, davlatchilik, tabiat, jamiyat, tarix, falsafa, huquq, din, tilshunoslik, geografiya, ma'danshunoslik, tuproqshunoslik, gidrologiya, astronomiya, dehqonchilik, bog'dorchilik, qushlar, biologiya, zoologiya va boshqa fanlarga doir ilmiy asar hamdir. Hozir davlat va harbiyda o'rischa qo'llanayotgan so'zlarning chin turk atamasi shu asarda bor. Yarim dunyo elatlari va hududlari haqida ma'lumotlar; Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindiston o'tmishi, davri, xalqlari, qabilalari, tili, madaniyati, kasb, urf-odatlar, rasm-rusumlari, marosimlari, tabaqalari tushunarli lafzda. Asarda sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, lirik chekinishlar, maqollar, matallar, iboralar, kinoyalar, hajv, ibratli o'gitlar, she'riy parchalar o'ziga xos mukammal bezak bo'lib turibdi.

Bugun bolalarimiz "Bobirnoma"ni tabdilda o'qisa, bezaklar yo'qola boshlaydi, kelajakka Bobir tili begona bo'ladi. Maktab o'quvchilari uchun tabdil qilib kutubxonalarga tarqatdik, degan taqdirda ham, bir tomonida asarning asl matni bo'lishi shart. Qilingan tabdil, tabdil deyishga yaroqsiz. Toshkent shahri "Bobirnoma"da Toshkent deb zikr etilgan. Tabdilda zamonaviy o'zbek maktab o'quvchilari ko'zda tutilgan ekan Toshkent shaklida yozilishi kerak edi. Vahob Rahmonov ikkala shaklni ham aralash – goh u, goh bu qilib qo'l uchida qo'llab ketavergan. Toshkent deb yozib borib, 50-betda Toshkentga aylantirib qo'yadi. Termiz shahrini ham goh Tirmiz va goh Termiz deb tabdilda berilishi maktab o'quvchilarini chalg'itadi. Ular insho yozganda nima deb qo'llasin?! Namangan shahri zamonaviy tilda Namongan deyilmaydi. Quva ham ilgari Qubo deb atalgan, lekin tabdilchi bunga e'tibor bermagan. Maktab o'quvchisi "Qubo qayerda?" deb o'qituvchidan savol so'raydi. Andijondagi Xokon darvozasini tabdilda "Jakan" deb bergan "ulug' matnshunos"imiz, tabdilchimiz arab imlosidagi nuqtani o'qiy olmagan.

Idish qo'yiladi, suv quyiladi. Quyi engani uchun suv quyiladi. Tabdilchi Vahob Rahmonov esa, "suvni qo'yish" uchun ariq boshida ketmon ko'tarib turibdi. Imom Buxoriy abadiy qo'nim topgan qishloq – Xartan. Ammo bu qishloqni "Xartanak" deb o'zgartirgan(56-bet). Keyingi sahifada "Hindistonda roja Bikramajit zamonida Malo't mamlakatidan Ujjay va Dhar shaharlarida tuzilgan", degan o'rinni o'qib, "Malot nomli mamlakat qayerda bo'lgan ekan?" deb o'yga tolasiz. Zamonaviy va eski xaritalarni qo'lga olib har qancha urinmang, Malot mamlakatini topolmaysiz. Mana shu joyda tabdilchining arab alifbosida adashishi ayon bo'ladi. "Bobirnoma"dagi مالوه so'zini Malot shaklida keltirishi, tabdilchining eski yozuvni o'qishga qiynalganidan dalolat. Asarning Hindiston qismida ham Malot degan shahar nomiga duch kelasiz. Panjobdagi bu shahar Malot emas, Milvat. Noto'g'ri o'qib, o'quvchilar ongiga xato ma'lumot singdirilgan. Yuqoridagi keltirilgan Ujjay shahri qayer? Bikramajit rasadxona qurdirgan shahar nomi Ujjay emas, Ujjayn.

Tabdilning 37-betida "Chaman" degan oy nomi keltirilgan. Arab alifbosida چمن tarzida yozilgan

joy nomidagi kof harfi nega tashlab ketilgan? 88-betdagi Qal'ayi Dabusiya 97-betda Qal'ayi Dabusiyy yozilgan. Arab imlosini to'liq hijjalay olmaslik tabdilchiga ko'p joylarda pand bergan. Tabdilning 243-betida "Chosht dovonining pastiga tushib....", degan gapda geografiyadagi yana bir yangilikka duch kelamiz. Pokistonning shimolida Chosht degan dovon bor deb fikr qilsangiz adashasiz. Chosht – joy nomi emas, vaqt o'lchov birligi ekanligini tabdilchi o'ylab ham ko'rmagan.

Xuroson hukmdori Sulton Husayn mirzoning farzandlari, haram ahli, saroy amirlari va shoirlarni sanab o'tishda "yana" bog'lovchi so'zidan so'ng vergul ishlatgan.

Yana, biri Faridun Husayn mirzo edi.

Yana, Haydar mirzo edi.

Yana, Shahribonu begim edi.

Yana, Alisherbek Navoiy edi.

Yana, Ahmad Tavakkul barlos edi.

Yana, Valibek edi.

179-betdan 198-betgacha to'qsondan ortiq shaxs nomi sanab o'tilgan. Ehtimol bu gap qurilishidagi yangi qoida dersiz. U holda kitobning 38–43-betlaridagi Sulton Mahmud Mirzoning oila a'zolari va amirlarini sanashda nega "Yana" so'zidan so'ng vergul qo'yilmagan?

Gazetalarni o'qisangiz, ko'p maqolalarda jurnalistlarimiz qaratqich kelishigi o'rnida tushum kelishigini ishlatadi, xo'p, jurnalistlar biroz chalasavod bo'ladi ham deylik. Biroq bu "chalasavod"likdan olimlarimiz ham xoli emasligi maqola boshida aytilgan g'alatilikdir. Tabdil so'zboshisida (7-bet) "Bayramxonni o'g'li mirzoxong'a buyurdilarkim...". Aslida falonchining o'g'li deganda qaratqich kelishigi qo'llanilishi kerak edi, ya'ni Bayramxonning. Shu gapdagi "mirzaxon" ism, lekin bu ism juda ko'p sahifada (135) kichik harfda yozilgan. Ilm olaman degan maktab o'quvchisi ismni kichik harfda yozishi kerakmi?! "Atab qo'yilgan har qanday ot katta harfda yoziladi" degan darsliklardagi qoidaga ishonchi qolmasligi kerakmi?!

Bobiriylar davlatining eng yirik amirlaridan biri bo'lgan Bayramxonning Mirzaxon ismli o'g'li bo'lmagani. O'g'lining ismi Abdurahim bo'lib, Bobiriylar davlati oldidagi xizmatlari evaziga Akbarshoh uni "xoni xonon" nisbasi bilan siylagan. Abdurahim xoni xonon "Bobirnoma"ni fors tiliga tarjima qilgan. Olimimiz temuriy zoda Mirzaxon va Bayramxonning o'g'li Abdurahim xoni xononning ikkita shaxs ekanini ajratolmagan (131-bet).

2

Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy"da yozib qoldirgan quyidagi fikrlari bugungi kungacha ham bashoratday bo'lib turibdi. U yozgan edi: "Turk she'riyatida Amir Alisher Navoiydan so'ng hech kim Bobirga teng kela olmaydi".

O'z tog'alarin aldoviga uchragan Bobir o'n sakkiz yoshida, Turoq chorbog'ida:

"Jonimdin o'zga yor-u vafodor topmadim,

Ko'nglumdan o'zga mahrami asror topmadim..."

matla'si bilan boshlanguvchi g'azalni bitgan. Bu uning iste'dod darajasini belgilaydi.

Bobir shoh, shoir, yozuvchi, olim, adabiyotshunos, tarixchi, geograf, jangchi, diplomat – u har qanday sohada iste'dodga ega. Bu iste'dod uning olamshumul shuhratini ta'minlagan.

Vahob Rahmonov nashrga tayyorlagan kitobdan foydalangim kelmay, boshqa kitob qidirdim. Bugun qo'limga tushgan "Bobirnoma" esa tabdil emas, avvalgi nusxalaridagi minglab xatolar tuzatilib nashr qilingan kitob. Kitobga olim Botirali Yo'ldoshev yapon olimi Eyji Mano tayyorlagan "Bobirnoma"ning tanqidiy matni va Qozon qo'lyozmasini asos qilib olgan hamda "Bobirnoma"ning ma'lum bo'lgan boshqa qo'lyozmalari hamda avvalgi nashrlariga tayangan. Bu kitob O'zbekistondagi barcha ilm dargohlarida, maktab, universitet, akademiyalar, harbiy bo'linmalar kutubxonalarida turishi, o'qilishi kerak. Ekologiya tashkilotlari, vazirliklar va hukumat istollariga qo'yiladigan nashr. Olimning o'n yillik mehnati yuzaga chiqqan kitob.

(Davomi 4-5-betlarda.)



(Davomi. Boshi 2-, 3-betlarda.)

O'zbekistonda o'rta maktabning o'zi o'n bir mingdan oshiq. Maktab kutubxonasida hech bo'lmasa besh donadan "Bobirnoma" turishi kerak. Shuncha maktab bor ekan, nechta o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi bor? "Bobirnoma" qo'lida yo uyida bo'lmagan o'qituvchi o'zbek tili va adabiyotidan qanday dars o'tadi?! Kitob esa atigi uch ming dona chiqqan. Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetining o'zida uch mingdan oshiq talaba o'qiydi. O'sha talabalarining o'ziga ham yetmay qoladi-ku, bu kitob! Ular kitob olmaydi, kitob o'qimaydi deysizmi?! Kitob o'qimaydigan talaba, kitob bo'lib ham "Bobirnoma"ni o'qimaydigan talaba o'zbek tili va adabiyoti univerisitetiga qanday kirgan yoki kiradi? Bu universitetni qanday bitiradi? Qaysi yuz bilan bitiradi? Tolibi ilm kerak!

Prezident Shavkat Mirziyoyevning kitob o'qishga da'vat qilishi boshqa-yu, ta'lim vazirliklarining nazari boshqa bo'lib qolganmi shunda?!

Kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha Prezident qancha loyihalarni imzoladi. Biroq... "Bobirnoma"ni o'qimagan kitobxon, qanday kitobxon deyiladi?! Kitob yozganga bir tanga, kitob o'qiganga ming tanga. "Eshagim ham kitob o'qiydi" deb garov bog'lagan ekan arabcha kitob o'qib, ichidagi ma'nosini tushunmaydigan bir imom... Biz qurmoqchi bo'lgan Yangi O'zbekistonga sog'lom jamiyat kerak. O'zi xohlab o'qish darajasiga yetkazish lozim. Bu uchun ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga ehtiyoj bor.

"Bobirnoma" tahliliga qaytar esak, shu kunlarda professor Rashit Rahmati Aratning turkchaga chevirmasidan bir-ikki sahifa o'qidim. "Baburname" (Vekaye) G'azi Zahiriddin Muhammed Babur. So'zboshi va izohlar Hikmat Baydurga tegishli. Turk-mo'g'ul imperatorligi, turk tarixi deb begona qilmaganidan tashqari, Bobir so'zlarini imkoni boricha o'z holda qoldirib tarjima qilgan. Nafasi, ohangi ham o'zida qolgan. Bizda-chi?! Tabdildagi matn tuzilishini ham Bobirdan yiroqlashtirgan.

"Bobirnoma" jahon adabiyotining shoh asarlaridan biri. U XVI asrning o'zidayoq o'rganila boshlangan. Bobirshunoslikdan tashqari, "bobirnomashunoslik" degan soha bor. Hindistonda Abdurahim Xonixonon, Angliyada Annet xonim, Amerikada Sakston, Fransiya-da Pave de Kurteyl va boshqalar, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlarning ko'plab olimlari aynan "Bobirnoma" ustida yuzlab tadqiqotlar olib borishgan... Pokistonda Mirzo Nasriddin, Haydar Kuragoniy, Rushan Oro begim kabi olimlar bu sohada ilmiy ish qilgan, O'zbekistonda H.Yoqubov, P.Shamsiyev, S.Azimjonova, S.Hasanov, B.Valixo'jayev, A.A'zam, B.Yo'ldoshev, X.Bekmirzayeva, O.Jo'rabo'yev, S.Mirzayev, N.Otajonov, A.Ibrohimov va boshqalar bu asarning har so'zini aniq holda elga yetkazishga harakat qilgan va harakat qilib kelmoqda.

Bobir barcha davrlarning sevimli kishisi. U qayerni fath etmasin, o'sha yerning zakiy insoni uni bosqinchi sifatida ko'ra olmaydi. U nurlli shaxs, o'zidagi nurni yozganiga ham ko'chira olgan. "Bobirnoma"ni Herman Vamberi "Sharq Sezarining xotiralari" deb nomlaydi. Bu asar haqida Anri Mikel yozadi: *"Janglar, g'alaba va mag'lubiyatlar, kelishuvlar... bular shubhadan xoli, albatta. Shuningdek, xotiralar, fikrlar, zaifliklar, yurak dardlari haqida nihoyatda soddalik bilan, hech bir mubolag'asiz hikoya qilinadi. Bularning hammasi yuksak darajada tuzilganki, go'yo kitob emas, jozibali bir hodisa deysiz"*. Eduard Xolden yozadi: *"Bobir fe'li-sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevisiga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan"*.

"Tarixi Rashidiy" muallifi Mirzo Muhammad Haydar shunday yozadi: *"U turli fazilatlar bilan bezangan va maqto'vli xislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi..."*. Hindistonning birinchi bosh vaziri Javoharlar'l Neru yozadi: *"Bobir dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni..."*. Uilyam Erskin yozadi: *"Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyo shohlari orasida Bobirga teng keladigan biror shoh topilmaydi"*. Leyn Poul yozadi: *"Agar biron tarixiy hujjatni boshqa guvohliklarsiz ham haqqoniy deb*

qabul qilish mumkin bo'lsa, bunday hujjat, shubhasiz, "Bobirnoma".

Dunyo adabiyotida nafaqat Bobir haqida ko'plab asarlar bor, uning asari "Bobirnoma" haqida yanada ko'proq asarlar bor. Sharq miniatyurasida, g'arb rassomchilik san'atida nafaqat Bobir haqida, uning asari "Bobirnoma" haqida yanada ko'proq suratlar bor. Bu asar arab, ispan, italyan, ingliz, hind, fors, nemis, o'ris... boringki, barcha ko'pellik tillarga deyarli tarjima qilib bo'lingan. G'irt turk, chin o'zbek tilida yozilgan bu asarni Vahob Rahmonov "o'zbek tilidan o'zbek tiliga tarjima" qilgan.

Men shoirman. Shoir so'zni olimdan o'n barobar ortiq his qilsa, hofizdan yuz barobar ortiq his qiladi. Shoir so'zini qo'riqlaydi. O'zgartishga o'zganing haqqi yo'q. Aytmoqchi bo'lgan fikrini qo'riqlamaydi.

Yuqorida "Bobirnoma" tabdili qay holatda ekanligini ko'rdik va hali davom etamiz. Hozir yana bir g'azalga e'tibor bersak. Bobir g'azali bor:

***Bahor ayyomidur, dag'i yigitlikning avonidur,
Ketur, soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.***

***Gahi sahro uzori lola shaklidan erur gulgun,
Gahi sahni chaman gul chehrasidin arg'uvonidur.***

***Yana sahni chaman bo'ldi
munaqqash rang gullardin,
Magarkim sun'ning
naqqoshig'a rang imtihonidur.***

***Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,
Qading, ey gul, hayotim bog'ining sarvi ravonidur.***

***Ne yerda bo'lsang, ey gul,
andadur chun joni Bobirning,
G'aribingg'a tarahhum aylagilkim, anda jonidur.***

Maqta' mazmuni: *"Qayda bo'lsang, jonim o'sha yerda, oyog'ing ostidagi jonga rahm qil"*.

Vahob Rahmonov esa oxirgi satrni *"G'aribingga tarahhum aylagilkim..."* nomli katta bir maqolasida *"anda jonidur"* emas, *"andijoniydur"* deb isbotlashga harakat qilgan, chirangan. She'r, bu matn o'qish emas, his qilishdir. She'rni his qila olmas ekan, nima uchun Bobirning so'zini buzadi?! Kim huquq berdi? So'ng bu g'azal *"andijoniydur"* deb kitoblarga kiritildi. Taniqli hofiz Sherali Jo'rayev esa o'ylab ko'rmasdan, shu holda qo'shiq qildi. Elga *"andijoniy"* bo'lib yetib bordi. Bu ishni qilgan olimlar bu *"kashfiyoti"* bilan ham Bobirga tuhmat qilishdi, ham bir satrda g'azal mazmuni, tashbehi, *"dur"* qo'shimchasidagi so'z o'yini, akslantirishni yo'qqa chiqarib, saviyasini tushirib yubordi. Zahiriddin Muhammad "Bobir" taxallusi bilan irod qilgan. *"Bobir Andijoniy"* taxallusi bilan emas. Farosatni qarang: Yer sharida oshiq ko'p. Agar oshiq andijonlik bo'lsagina yor rahm qilishi kerakmi shunda?

Meni xavotirga solgan narsa, kelajakda biron olimimiz bu g'azalni ham tasavvufga va yo vatan sog'inchiga bog'lab tahlil qilmasa bo'ldi. Bunday olimlar axir Cho'lponning *"Go'zal"* she'rini mustaqillikka bog'lab tahlil qilishgan va darsliklarga kiritishgan.

3

Vahob Rahmonovning *"olimlik sha'ni"*ga to'g'ri kelmaydigan, *"raqib"*ga g'arazgo'ylik bilan yozilgan(men shunday tushundim), *"Sharq yulduzi"* jurnalining 2026-yil 2-sonida chop etilgan maqolasi e'tiborimni tortdi. Maqola nomi *"Bir sahifada bir dunyo xato"*. Birinchidan, sarlavhaga yarashmaydigan nom, ikkinchidan, qalbidagi *"kin"*ni birdan peshtaxtaga qo'ygan. Muqimiydan olgan epigrafi esa *"g'araz"*ni ro'y-rost ochgan:

***Darig'oki, baxtim qaro bo'lmasa,
Senga tusharmidim, Xudo urmasa!?***

TOLIBI

Raqibi "Bobirnoma"ni mustaqil ishlab, nashrga qayta tayyorlab chop ettirgan olim Botirali Yo'ldoshev. Men Vahob Rahmonovning o'zi mustaqil ishlagan biror kitobini bilmayman. Ehtimol, bordir. Maqola esa, Bobir yo "Bobirnoma" emas, *"Botir Yo'ldoshev..."* deb boshlanadi. *"Ra'qib"*ning ismini ham to'g'ri va to'liq yozgisi kelmaydi. Botirali emas, Botir deb yozadi. *"Botir Yo'ldoshev o'n yil zahmat chekib, "Boburnoma"ning 1948-, 1960-, 2002-, 2008-, 2022-yilgi nashrlaridan 2500 dan ortiq nuqson topib, mazkur asarning yangi nashrini "Ochun" nashriyotida 3000 ming nusxada chop ettirdi..."*.

Avvalgi nashrdagi xatolarini tuzatib deb emas, *"nuqson topib"* deb yozadi. Ikki yarim mingta xatoni tuzatgan ekan, imkonsiz tan olibdimi, Vahob Rahmonov Botirali Yo'ldoshevning boshidan suv o'girib ichsa arziydi. Botirali Yo'ldoshevg'a el rahmat aytisa arziydi. O'quvchilar qo'lga *"Bobirnoma"* matni yanada to'liqroq, aniqroq yetib boradi shu nashr tufayli. Mazkur to'plamda 2500 ga yaqindir, ko'pdur, yo aniq 2500 ta xato tuzatilgan, menga qorong'u. Biroq *"Bobur"* so'zini *"Bobir"* deb tuzatmagan. Nima uchun *"Babr"*, *"Babir"*, *"Bobir"* so'zini bu tabdilchilar *"Bobur"* deb xato yozadi va butun xalqni shu talaffuzga o'rgatishga harakat qilishdi, shunga tushunmayman. Besh asr davomida biz turk-o'zbeklar orasida *"Bobir"* bo'lib kelgan so'zni, o'z-o'zidan *"Bobur"*ga qanday aylantirdi va qachon?! Qaysi bir ingliz, o'rus yo forsigo'y yo arabiyning lahjasi aybi bilan shunday yozildi. Yigirmanchi asrdan boshlab Bobirni *"Bobur"* deb Dashti Qipchoq o'zbeklari ham talaffuz qila boshladi. Bitta so'zni himoya qila olmasdan, butun dunyoga mo'g'ullar imperiyasi nomi bilan mashhur bo'lib ketgan Bobiriylar saltanatini turklar saltanati deb qayerdan ham himoya qilardik?! Bu jumboqlarning ham javobi topilar...

Olimlarda mahalliychilik va tanish-bilishchilik, shogird tanlash, nafaqat shogird masalasida, tarixiy bahsni mahalliyashtirish masalasida ham avj olgani, umumiy fojeamizdir...

*"Sharq yulduzi"*dagi maqolaga qaytamiz.

Vahob Rahmonov *"Bobirnoma"*dan *"topilgan nuqson"*larni topgan olimni, Botirali Yo'ldoshev tayyorlagan nashrda to'g'ri berilgani va bu bobirshunoslikda kentiklarni tuzatishdagi kattagina yutuq ekanini tilga olgisi ham kelmagan. Doim o'zining nomi matnshunoslarning old safida tilga olinishiga o'rganib qolgan. Ism-familiyasi ayni kundagi eng yaxshi nashrda tilga olinmagani *"olimimiz"* alamiga alam qo'shgan, taxminimcha. Botirali Yo'ldoshevning tarixiy mavzuda mingga yaqin maqolasi borligini tan oladi-yu, so'ng o'zini-o'zi rad etadi. *"Sharq yulduzi"*da chop etilgan maqolasidagi 36 ta *"xato"* bilan o'qirmanni chalg'itadi. Bu xatolarni avvalgi ilmiy nashrlar bilan deyarli solishtirmagan, isbotlamagan. Botirali Yo'ldoshev mustaqil nashrga tayyorlagan kitob haqida, uning yutuqlarini yozishni boshlaydi-yu, bexos to'xtab, shunday deydi: *"Boburnoma"ga ikki betdan yozilgan so'zboshilar ilmiy nashr uchun ham, ommabop nashr uchun ham qoniqarsizdir. "Boburnoma"day bebaho yodgorlik qo'lyozma va nashrlaridagi matn tafovutlarini ko'rsatgan mutaxassis, avvalo, ilmiy nashrligini hisobga olmog'i, kamida 40–50 betlik matnshunoslik maqolasini ilova qilmog'i lozim edi. Agar ushbu nashr ommabop bo'lsa asar ahamiyati, qimmat, g'oyasi, obrazlar tizimi, adabiy va tarixiy mohiyati yoritilgan 30–40 betlik maqola so'zboshi sifatida yozilmog'i taqozo qilinar edi. "Boburnoma"ning ushbu yangi nashrida yuzlab matn nuqsonlari sodir etilgan. Masalan, so'zboshida ham, kitobda ham uslubiy tahrir bajarilmagani kishini hayratga soladi. Kitob shunchalik shitob bilan tayyorlanganki, noshir Botir Yo'ldoshev va nashriyot mutasaddilari: mas'ul muharrir; muharrir; musahhih, noshir va nashr uchun mas'ullar o'z vazifalarini tegishli bajaranmaganlar. Botir Yo'ldoshevning so'zboshisidan bir gapni ko'zdan kechiramiz. "Yuqorida tilga olingan ilmiy nashrlardan tashqari bir necha marta kirill va*



ILM KERAK

lotin yozuvlarida ham **bir necha marta** chop etilgan bu buyuk asardagi qator xatolar tuzatilmagan” (7-bet). Bu gapni o‘qigan kitobxon so‘zboshi muallifidan: “Nega o‘zingiz o‘z uslubiy xatongizni tuzatmagansiz?” deb so‘rsa, noshir nima deb javob beradi? Ko‘ryapmizki, birgina gapda uchta so‘z ikki karra keraksiz holda takrorlanmoqda...”.

Buni o‘qib mendek olim, matnshunos bo‘lmagan odam – “Bobirnoma”ni sevib o‘qigan oddiy bir o‘quvchida savol tug‘iladi. Abdulla A‘zam yozgan so‘zboshi va Botirali Yo‘ldoshev yozgan kirishso‘zni o‘qidim, albatta qoniqarsiz. Biroq gap “Bobirnoma” haqida. So‘zboshi yoziladimi, yozilmaydimi “Bobirnoma” kitobiga qizig‘i yo‘q. So‘zboshi yozilmagan taqdirda ham bu kitob o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. So‘zboshisiz nashr qilsa, aksincha yaxshidir. V.Rahmonov “kamida 40–50 betlik matnshunoslik haqida maqola kitobga kiritish kerak edi”, deb yozgan. 40–50 bet yozish kerak degan qonunni Vahob Rahmonov qayerdan olgan? O‘ziga o‘zi qonun yaratganmi? Men o‘quvchi sifatida “Bobirnoma”ni qo‘lga olsam, 50 betlik matnshunoslik haqida maqola o‘qigandan ko‘ra, “Bobirnoma”dan o‘n bet o‘qishni ma‘qul ko‘raman. “Bobirnoma”dagi xatolar qolib ketib, “matnshunos” olimimiz “diktantshunos” bo‘lib so‘zboshidagi orfografik xatolarni sanashga o‘tib ketadi. So‘ng yana “Bobirnoma”ga qaytib xatolar haqida so‘z yuritir ekan, ayrim jo‘yali fikrlariga qo‘shilasan. Biroq “shud” so‘zi, “sh ud”, “dasht-u” so‘zi “dash tu” yozilib ketganiga ko‘proq e‘tibor qaratadi. Aslida bu nashriyotda ishlaydigan musahhihlar aybi. Matn kompyuterda terilayotgandagi e‘tiborsizlik oqibati. Vahob Rahmonov yozadi: “...Bunday ulug‘ ishga qo‘l uradigan odamda biror pog‘ona ilmiy daraja ham kerak”. Ilm uchun ilmiy daraja, medal-u unvon nima kerak?! Tritada ilmiy daraja bo‘lganmi, Gippokratda-chi? Bobir “Mubayyin”ni tarjima qilmagi uchun ilmiy daraja olishi kerakmidi, yo?! Iste‘dodli odamga ilmiy daraja nima kerak?!

Matnshunos olimimiz yozgay: “...asar boshlanishining ikkinchi xatboshidayoq Saidbek Hasanov yo‘l qo‘ygan nuqsonni ham payqamagan. U “Yangi” shahrining kitoblardagi nomi “O‘tror” deb qayd etgan: “misli: Olmolig‘ va Olmotu Yangikim, kutubda O‘tror bitarlar” (“Boburnoma”, 2024, 10-bet). Botir Yo‘ldoshev “Yangi” shahrining nomi “O‘tror” emas, balki avval ham, hozir Toroz ekanligini to‘g‘ri qayd etmagan.

Noshirimiz “Boburnoma”ning Haydarobod nusxasida va Annet Beverej tarjimasida Yangi shahri O‘tror yozilgan deb da‘vo qiladi. Bu fikrning haqiqatga to‘g‘ri kelmasligini Beverej xonimning “Boburnoma” tarjimasidagi satrlar isbotlab beradi. Kitobning “Boburnoma – bebaho asar” nomli kirish so‘zi muallifi, professor Omonullo Bo‘riyevga minnatdorlik izhor etgan. Agar nusxani Omonullo Bo‘riyev o‘qiganda “O‘tror”ni o‘chirib, “Torozi” deya isloh qilgan bo‘lar edi...”.

Bu gapda Botirali Yo‘ldoshevga tuhmat, Omonulla Bo‘riyev haqida fol bor. Qo‘limga internetdan “Bobirnoma”ning 2005-, 2006-yillarda chop etilgan turkcha nashrining fotonusxalari tushdi. Istanbul. To‘pqpopi. Mashhur “Kabalchi Yayanivi” nashriyoti. ISBN: 995-997-067-8. Kitobda shunday yozilgan: “Fergana vilayeti besinci iklimdendir ve mamurenin kenarindadir. Dog‘usu Kasgar, batısı Semerkand ve g‘uneyiye Bedahsan‘in sınırı olan dağlardır. Evvelce kuzeyinde Almalık, Almatu ve Yangı – kitaplarda Otrar diye yazar – gibi şehirler varmış; fakat bugün Mogul ve Özbekler tarafından tahrip edilmiş ve artık hiçbir mamuresi kalmamıştır. Küçük bir vilayettir. Hububat ve meyvesi boldur”.

Bu kitobga qaysi nashr asos qilib olingan deb izlay boshladim. “Annette Susannah Beveredge in The Baburnama in English (1922) ve Wheeler Thackston in The Baburnama (1996)” degan yozuv turibdi. Demak, Annet Beverej bilan olim Botirali Yo‘ldoshevning fikri bir joydan chiqqan.

“Toshotar” olim davom etadi: ... “Boburnoma”ning 11-betidan iqtibos olamiz. Gap Andijon tabiati haqida: “Ovi qushi dog‘i ko‘p bo‘lur, qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur”... Avvalo, bu gapdan noshirning turkiy tili sintaksisi(gap qurilishi) ilmi yuzasidan bilimi haminqadarligi seziladi.... Bobur bu gapni quyidagicha yozgan: “Ovu qushi dog‘i ko‘p bo‘lur. Qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur”. Bobur birinchi gapni bunday tushungan: “Andijonning ov qilinadigan hayvonlari va ovlanadigan qushlari ham ko‘p bo‘ladi”.

Keyin “ov” so‘zini “Muhokamat ul-lug‘atayn” bilan isbotlashga urinadi. Izohlamagan taqdirida ham, “ov” so‘zi nima ma‘no berishini barcha o‘zbek yaxshi biladi. “...turkiy tili sintaksisi...” bu qanday mujmal ibora?! O‘zbek tilida so‘z qanday yasallishidan bexabar ekan, degan o‘y keladi. “Turkiy tili sintaksisi...” deyish qo‘pol xato. “Turkiy til sintaksisi” bo‘ladi, yoki “turk tili sintaksisi”. Vahob Rahmonovning o‘zi “sintaksidan” bexabarligi bililib qolgan... “Bobur bu gapni quyidagicha yozgan: “Ovu qushi dog‘i ko‘p bo‘lur, qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur”. Bobur birinchi gapni bunday tushungan: “Andijonning ov qilinadigan hayvonlari va ovlanadigan qushlari ham ko‘p bo‘ladi”. Bu u o‘ylab topgan ertak. Bobir emas, Vahob Rahmonov shunday tushungan. Men shunday tushunaman, desa xato bo‘lmaydi, bu yerda. Bobir nomidan javob berishga kim huquq berdi?! Bobir, “men shunday tushundim”, deb bu kishiga aytdimi yo?! Bobir qanday tushunganini juda bo‘lmasa Mohlaroyimdan so‘rash kerak bo‘ladi. Hamma o‘z “tushungan”ini yozadi. Bobir tushungan narsani Vahob Rahmonov yozmaydi. Tushunganini tushunishi mumkin. “Ovi qushi dog‘i ko‘p bo‘lur, qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur”... Bu Botirali Yo‘ldoshev tayyorlagan nashrdan. “U” o‘rnida “i”. Bu haqiqatga yaqinday tuyuldi. “Ovi qush”, “qush ovi” xuddi “bog‘i behisht”, “behisht bog‘i” kabi. Ov qushlari ko‘p bo‘lar. Bo‘ldi. Sababki, gap davomida qirg‘ovul bor, kiyik emas. Vahob Rahmonov aytganday “ovlanadigan hayvonlar haqida gap ketganida gap davomida “kiyikmi, to‘ng‘iz” tilga olingan bo‘lardir. Matn bilan ishlayotganda, mantiqni chetga surmaslik kerak. “Alif”, “vov”, “ye” yozilgan. Gapga e‘tibor berilmay mantiq yana chetga surilsa, “uy” deb o‘qib ketishadi. “Uy qushi ko‘p bo‘ladi”, deb. Shu yerda “dog‘i” so‘zi bor. “D” harfidan keyin “alif” bormi, “vov” bormi, yo harf yozilmaganmi (aksariyat holda unlilar yozilmaydi), bilmayman. Qarash kerak, biroq, ikki olim ham “dog‘i” deb yozgani bilan, men buni o‘zim uchun: “Ovi qushi dag‘i ko‘p bo‘lur, qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur” deb o‘qiyman. “Dag‘i” yana, shuningdek, bot, ham, hamda ma‘nolarini beradi. “Dog‘i” esa bu ma‘noni bermaydi.

Vahob Rahmonovning “g‘olibo, g‘oliban” so‘zlari haqidagi fikrida jon borday. “Farhangi tojiki zaboni” istolida turibdi ekan, yoniga “Mu‘jamu al-lug‘ati al-arabi”ni ham qo‘yish kerak edi. G‘olibo va g‘oliban so‘zlari chin arabcha so‘z. Arab tilining izohli lug‘ati bilan izohlash kerak edi. “G‘olib” bu tojikcha o‘zakmas. Yengish, qilib bo‘lingan, qilingan, bo‘lgach... “G‘olibo” degani matnda Vahob Rahmonov aytganday, “ey, g‘oliblar” degani emas. Bu kirish so‘z bo‘lib, “aynan biror ma‘noni ifodalab kelmayapti. “Inchunin”ning kuchaytirilgan shakliday kelgan bu gapda. “Ey, g‘oliblar” degan ma‘noni ham ifodalamaydi, “g‘olibo”, “g‘oliban” o‘zbek tiliga arab tilidan ko‘chma ma‘noda ko‘chgan. Bobir Samarqandni olishdan oldin ko‘rgan tush ta‘rifida “g‘oliban” degan so‘z emas, aksincha “g‘olibo” go‘zal o‘qiydi...

Maqolada yozadi: “Botir Yo‘ldoshev Kamol Xo‘jandiy devonini o‘qiganda edi, bu tog‘ning nomi “Mevag‘ul” sermeva ekanligini bilar, kitobxonni shubhali Mutugil yo Mutug‘ul bilan chalg‘itib yurmas edi. Hozir Xo‘jandliklar bu tog‘ni “Mo‘g‘ul” tog‘i deyishadi.”

Qanday farosat kerakki, “Bobirnoma”ni o‘qish uchun Kamol Xo‘jandiy g‘azallarini o‘qish kerak, demoqqa. “Fors-tojik adabiyotining bo‘g‘zida chekilgan oh” bo‘lib qolgan Kamol Xo‘jandiy satridan shu tog‘ Mevag‘ul deb atalishi haqida misol keltirmagan.



Mayli, bu maqolaga Botirali Yo‘ldoshevning ko‘zi tushar, keyin topib o‘qir degan umidda, ma‘lumot. Kamol Xo‘jandiy Xo‘jandda tug‘ilgan. Maktab yoshiga yetgach, Samarqandga keladi. Qaytib Xo‘jandni ko‘rmaydi. Samarqandda maktab ko‘rib, Toshkentga ketadi, undan Xorazmga, Xorazmdan Tabrizga ketib, u yerda muqim yashab qoladi. Tabrizni To‘xtamishxon bosib olgach, uni Oltin O‘rdaga olib boradi, u Dashti Qipchoq poytaxti Saroy shahrida o‘n yil yashab qoladi. Amir Temur To‘xtamishxonni yenggach, Kamol Xo‘jandiy o‘z saroyiga oladi. Shoirilar uchun ham shohlar talashgan. Kamol Xo‘jandiy Tabrizda yashashni iltimos qilgach, Amir Temur uni o‘z uyiga, Tabrizga yuboradi. Tabrizda o‘lgan. Voliyonko‘hda, o‘z chorbog‘iga dafn etilgan. Hozir “Mozori Shayx Kamol” deb ataladigan ziyoratgoh. Bu uning tarixi. G‘azallarini, kerak bo‘lsa, Botirali Yo‘ldoshev topib o‘qisin va “Mevag‘ul”ni topsin. “Shubhali Mutugil...” deganda, bu so‘z turk tilida yo‘q deganday ma‘no beradi. Menimcha, xo‘jandliklar “Mo‘g‘ul” tog‘i, deb to‘g‘ri atashadi. Turklashib ketgan mo‘g‘ullar, o‘zbeklar hanuz o‘sha yerda yashashadi. Ikkinchidan esa, “Qarg‘aboy, Qarg‘alilar, Qarg‘alar oilasi” kabi “Mutugil” degan ism va atama mo‘g‘ullarda ham, turklarda ham, Dashti Qipchoq o‘zbeklarida ham bor bo‘lgan, hozirgacha ham bor. O‘zagi “Mütt ı, Муть, Мът” nima ma‘no berishini bilmayman. Biroq bugungacha ham Mutu degan ism turklarda ko‘p uchraydi(Mashhur voleybolchi Deniz Mutugil, yozuvchi Aysa Mutugil va h.k...). Gil – yer, tuproq, loy, ko‘chma ma‘noda(eski turk: uy, oila, xonadon). Ma‘nosi – Mutuning yeri, joyi bo‘lib kelyapti. “Bobirnoma”ning inglizcha nusxalarida ham “Mutu-Gil” bo‘lib kelgan.

“Bobirnoma”dagi so‘zlar va so‘z qurilishini o‘rganishda birinchi o‘rinda turk adabiyoti, keyin arab adabiyoti, keyin fors adabiyoti, oxirida hind lug‘ati kerak bo‘ladi. Vahob Rahmonov esa betinim fors-tojik adabiyotlariga murojaat qiladi. Maqolada “na‘shu va na‘mo” haqida gapirib o‘tgan. Shunday deydi: “Ilgari-gi noshirlar bu uchta so‘zni ikki so‘zda “Nash‘u namo” so‘zlarida ifodalashgan. Yangi nashrga tayyorlovchi bu variantni noto‘g‘ri hisoblab, “Nash‘u va namo”so‘zlarini sahih hisoblaydi va oldingi nashrga tayyorlovchilar “va” so‘zini inobatga olmaganlikda ayblaydi. Endi matnni keltiraylik: “Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hirida nash‘u va namo topibtur” (11-bet). Endi yangi matndagi “Nash‘u va namo”ni o‘ylaylik. Bu birikmadagi “va” so‘zi ortiqchaligini ilmi odam bilardi”.

(Davomi 6-betda.)

TOLIBI ILM KERAK

(Davomi. Boshi 2-,3-, 4-, 5-betlarda.)

Botirali Yoʻldoshev ilmsiz ekan, biroq... Matnni qayta oʻqing, agar bu arabchadan forschaga oʻzlashgan birikmada “v” boʻlmasa “asarlarning kamol topishi” yoʻqoladi. “Nashvunamo” (نشونما). Forschada misol, Shoir Anvariyan ikki bayt:

*Behi iqbol boz nashv namud,
Shoxi insof boz bor girift.*

Baxtning ildizi oʻsib adolatning shoxi meva bermay qolmaydimi, mabodo...

*Sahobi lutfi tu gar qatra bar zamin borad,
Hadidu sang shavad mustaidi nashvunamo.*

Tosh-da oʻsishga moyil boʻlib qolmaydimi, mabodo...

Farid Dovul oʻgʻli tuzgan “Usmonli turkchasining ensiklopedik lugʻati”ning 987-betida:

Neşv ü namâ: yetişip büyüme, sürüp çıkma.

“Misalli Büyük Türkçe Sözlük”, “Turkchaning katta izohli lugʻati” kitobida shunday taʼrif berilgan: **NEŞVÜNEMÂ** (نشونما) *i.* (Ar. neşʻu, Fars. ü “va”, Ar. nemâ ile neşʻ ü nemâ) **Gelişme, büyüme, gelişim.** *Sehâb-ı adl ü dâdın eyleyip âfâka feyz-efşân / Hemîşe gül-sitân-ı dehri pür-neşvünemâ eyle (Nedim). En ed-nâsındaki neşvünemâya bakılsa âlemin her zerresinde bir ruh tecellî ediyor zannolunur (Nâmık Kemal).*

“Nashʻu”ning oʻzi “v”siz boʻlsa, sevinchga aylanadi. Navoiy asarlari Hirotda “kamol topdi” emas, “sevinch topdi” boʻlib qoladi. Botirali Yoʻldoshev avvalgi uchta nashrdagi matnni yulduzlarga qarab xato demagani aniq. “Qari” soʻzini izohda oʻlchov birligi deb yozgan, ogʻirlikmi, uzunlikmi deb aniq yozmagan, deya Vahob

Rahmonov olimdan oʻpkalaydi. Lekin matnda uzunlik oʻlchov birligi ekanligi aniq yozilgan-ku! Oʻrtada masofa-ku. Bir kilogramm uzoqlikda oʻtirgani yoʻq. Buni omi odam ham biladi. Bu maqola haqida oʻn bet maqola qilishga hushim yoʻq. “Xukmi xoʻk, xubmi xoʻb” – bu soʻzlar haqida biror nima deyishim qiyin. Sababi, bu soʻzlar talaffuzga bogʻliq. Turk tilimizda bu harf uch xil diftongda talaffuz qilinadi: oʻrdak, ukki (ukki qush), uch... “Bobirnoma”ning ichida emas, izohida “bilan” soʻzi, “lina” boʻlib ketgan. Maqolada asosan musahhihlar xatosi Botirali Yoʻldoshev ustiga yuklangan. *Sayyidim, vaʼzliq, oshyonliq, lina, zij, sari, afsuski* va boshqalar... Albatta, bunda Botirali Yoʻldoshevning ham aybi bor. Musahhihdan soʻng ham “signal” nusxani qayta qunt bilan oʻqishi kerak edi. Maqolada Vahob Rahmonov “id” va “toni” soʻzlarini juda oʻrinli va haqli keltirib oʻtgan. Botirali Yoʻldoshev keyingi nashrlarda Vahob Rahmonovning bu ikki fikrini inobatga oladi, deb biz oʻquvchilar umid qilamiz.

Bobirshunos olim Botirali Yoʻldoshev oʻn yil davomida tayyorlagan bu nashr, qayta va toʻldirilgan, tuzatilgan holda chop etilib, barcha kutubxonalarga yetib borishi taʼlim tizimida katta va kerakli hodisa boʻlardi. Lekin qachon bu ish amalga oshadi?!

“Bobirnoma” turk tilinda bir chiroyli bitilmishkim... Uning turk nafasini arabchalashtirish, tojikchalashtirish asarni buzgay. Tabdil etish ham. Masalan: *Nigoh* degan soʻz bor, “e”, “i” kabi qoʻshimcha qoʻshildi deylik. *Nigoh-e* boʻlsa, forslashadi, *nigoh-i* boʻlsa, turklashadi.

“Bobirnoma” jahon adabiyotida bir benazir asarkim, u oddiy oʻquvchilar tomonidan oʻqilsa ham, oʻquvchini soʻz sehriga, voqealar girdobiga tortib ketadi. Bu kitob ichida sayr boshlagan oʻquvchi oʻzini tabiat manzaralari ichida koʻradi. Shaharlar, qishloqlar, vodiylar, togʻlar, bogʻlar aro kezadi. Mozor-u bozorlarga qadam bosadi. Turkiston, Hindiston, Afgʻonistonning shamolida yelpinib, yomgʻiridan bahramand boʻladi. Tarixiy yodgorliklarni tomosha qiladi, tarixiy shaxslar bilan yuzlashadi. Turk tilining naqadar jonli ekanligiga, Bo-

birning naqadar haqqoniy va samimiy yoza olishiga guvoh boʻladi. Bobirning gunohlarini nafaqat yelkasi-dagi farishtalar yozgan, uning oʻzi oʻz gunohlarin asarida ham yoza olgan. Hech nimani bekitmagan. U betakror rassomdir. Oʻquvchi boricha har bir kartinani “tomosha” qila oladi. Husayn Boyqaro portretini Kamoliddin Behzoddan chandon xoʻb va goʻzal chiza olgan. Shoirona idrok, hassoslik, nozik did Bobirning bu asariga yanada yashovchanlik baxsh etgan. Goh “Bobirnoma”dan bosh koʻtarib atrofingga qarayсан. Bitta hikoya yozish uchun mavzu izlab qoladigan notavon va ojiz yozuvchilarga koʻzing tushadi. “Bobirnoma” tematikasi esa, dunyoda mavzudan boshqa koʻp narsa yoʻq, deganday, barchaga aytib turadi. U shunday “mavzu”ga boy asardir. Oʻquvchini qiziqitira olish, keskin qarshilantirish, konfliktlar yaratish, har bir voqeaga yechim bera olish, “oxiri nima boʻlarkan deb oʻquvchi kutgan payti” lirik chekinish berib oʻquvchini imkonsiz keyingi boʻlimga oʻtkazib yuboradi, kulminatsiya izidan oʻquvchi qiziqib yana varaqlaydi, kitobdan bosh koʻtarmaydi. Matn ichida matn bera olish uslubidan Bobir kabi mahorat bilan foydalana olgan biror yozuvchi borligini bilmayman. Asardagi kichik epizodlar ham bir goʻzal hikoyaday bayon etilgan. Aniq va ravshan detallar bilan ishlangan. Qadimiy maqol va iboralarimizni mergan kabi oʻz oʻrniga qadaydi. Kinoya, yumor, hajvdan unumli foydalanadi. Bir shaxmatchi haqida “...*El bir ilik ila oʻynasa, ul ikki ilik bila oʻynar edi...*” deb yozadi hajv ila. Loʻndalikda ham betakror. Qisqa qilib tushuntirib qoʻya qoladi: “*Badiuzzamon mirzo xud bularning qoʻlida xamir edi...*”.

Ramziy aytish, jonlantirish, istiora sanʼatini qoʻllash... barchasi “Bobirnoma”dadir.

Bu asarni oʻz tilida oʻqishni istagan men kabi oddiy oʻquvchilar “Bobirnoma”ning mazkur nashrini qayta, toʻldirib nashr etishlarini kutib qolamiz. Nashrni tayyorlagani uchun olimga rahmat aytish va eʼzozlash burchimiz.

Talant TOLERANT,
Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi

Tajriba

“Tishimdagi soʻligʻim...” va ilm rishtasi

Badiiy va mumtoz adabiyotdan uzoqlashib Brayotgan bugungi kun yoshlariga adabiyotdan saboq berish oson ish emas. Asarlardagi baʼzi soʻz va jumalarni toʻliq tushunib yetmagunlaricha oʻquvchilar asarning mazmun-mohiyatini anglamaydilar.

Maqsud Shayxzoda, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf ijodida “soʻliq” (yoki “suvluq”) soʻzi koʻp uchraydi va u turlicha talqin qilinadi. Aslida soʻliq (suvluq) – otning ogʻziga solinadigan temirdan yasalgan moslama, yaʼni jilovning asosiy qismi boʻlib, otni boshqarish uchun xizmat qiladi. Odam “soʻliq”ni tishlaganda tishlar gʻichirlab ketadi, shuning uchun xalq orasida “gʻichir-gʻichir tishimdagi soʻligʻimsan...” degan ifoda shakllangan. Bu timsolda boshqaruv, boʻysunish, jilovlash maʼnosi mavjud. Demak, Muhammad Yusufning “Vatanim – tishimdagi soʻliqsan” degan tashbehi: vatan ham xuddi otning soʻligʻi kabi meni jilovlab, qaysi tomonga burishni oʻzi belgilaydi, men esa boʻysunib, unga ergashaman degan ramziy maʼnoga ega.

Shoir keyingi misralarda oʻzini jangovar otga qiyoslaydi va Vatanni jilovlovchi, yoʻl koʻrsatuvchi kuch sifatida tasvirlaydi.

“Oson tushunish” metodi Navoiy dostonlarini oʻrganishda ham samara beradi.

1. Dostonlarning maʼnaviy mazmunini tushunish: Navoiy dostonlarida doimo maʼnaviy va axloqiy masalalar koʻtariladi. Har bir dostonning asosiy va asl gʻoyasini aniqlash orqali mazmunni yaxshiroq anglash mumkin.

2. Kontekstni oʻrganish: asarlarning yaratilgan davri, vaqti va madaniyatini tushunish muhimdir. Bu dostonlarni toʻgʻri talqin qilishda birmuncha yordam beradi.

3. Kichik qismlarga boʻlib oʻrganish: dostonni butunlay oʻqish oʻrniga, kichik qismlarga boʻlib-boʻlib oʻqisangiz yanada oson boʻladi. Har bir qismini tushunishga harakat qiling.

4. Soʻz va iboralarning maʼnolarini aniqlash: Navoiy koʻplab murakkab soʻzlar va iboralardan foydalanadi. Ularning maʼnolarini tushunish uchun lugʻatlar keltirilgan ilovalar yoki internet resurslaridan foydalaning, yondaftarchangizga yozib boring.

5. Madaniy va tarixiy kontekstlar: dostonlar oʻqishda madaniy va tarixiy kontekstni tushunish foydali boʻladi. Bu dostonlarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

6. Vizualizatsiya qilish: dostonni oʻqiyotganda qahramon, voqea va manzaralarni xayolan tasavvur qilib, mazmunini osonroq anglash mumkin.

7. Sharh va izohlarni oʻrganish: dostonni oʻqiyotganda qiyinchiliklar yuzaga kelganda mutaxassislar tomonidan berilgan sharhlarni eshitib, oʻqib-oʻrganish tavsiya etiladi.

8. Boshqa dostonlar bilan taqqoslash: Navoiy dostonlarini boshqa oʻxshash mavzulardagi asarlar bilan taqqoslash dostonlarning chuqurroq tushunilishiga yordam beradi.

Navoiy yigitlik davrida “Topmadim” radifi bilan yozgan gʻazallarining birida yoshligida oʻzi qayta-qayta oʻqib, diliga jo qilgan dostonlar toʻgʻrisida soʻz yuritadi, unda shunday bir bayt bor:

*Koʻp oʻqudum Vomiq-u Farhod-u Majnun qissasin,
Oʻz ishimdin bulʼajabroq dostone topmadim.*

Shu tariqa oʻquvchilarga Navoiy bobomiz yoshligidan katta-katta dostonlarni qayta-qayta oʻqigani va bu dostonlar vaqt oʻtishi bilan uning talqinida qayta yaratilib, dunyoga mashhur boʻlgani kabi maʼlumotlar namuna qilib koʻrsatiladi. “Siz-chi, aziz oʻquvchilar, bugungacha qancha badiiy asarni oʻqib tugatdingiz?” degan savol albatta oʻquvchilarni oʻylantiradi va kitob oʻqishga undaydi.

“Ilm rishtasi” metodi taʼlim sifatini oshirishda kerakli omil hisoblanadi. Darsga uzun ip olib kirdim. Sinfda oʻquvchilardan dostonga oid berilgan vazifani savol-javoblar orqali soʻrashni boshladim. Oʻquvchilar esa javob berishdi. Toʻgʻri javob bergan oʻquvchi doska yoniga uzun qilib yerga qoʻyilgan ipning bir uchini ushladi va ikkinchi toʻgʻri javob bergan oʻquvchi ham ipimizni ushlaydi. Har bir toʻgʻri javobdan keyin ip oʻz-oʻzidan yerdan koʻtarila boshlaydi. Shunday qilib har bir javobdan soʻng ipimiz yerdan balandga koʻtarilaverdi. Natijada, ipning boʻsh joyi qolmaydi, u koʻtarilib oʻquvchilarni birlashtirdi.

Ushbu metod orqali vazifa bajargan oʻquvchilarni aniqladim. Demak, ilm insonlarni birlashtirar, yuksaltirar ekan degan xulosani ham biryoʻla ularga singdira oldim. Bu metod oʻquvchilar uchun juda ham qiziqarli boʻldi va vazifa bajaruvchi oʻquvchilar soni koʻpaydi.

Hulkaroy AZIMOVA,
Baliqchi tumanidagi
50-IDUM oʻqituvchisi

Talqin

ONA YURT TARIXINI KUYLAMOQLIK SAODATI



Ijodkorni davr yetishtiradi. Tafakkur buloqlari esa adabiy evrilishlar aro yangidan ko'z ochaveradi. Yaratish va yaralish – tilsim. Dunyoga kelishning o'zi dard. Uni anglash – iste'dod. Istiqlol tafakkuri insoniyatning ibtido va intihosi, ular o'rtasidagi hayotning tub mohiyatini anglash bilan birga, uning badiiy talqinlariga ehtiyoj seza boshladi. Bu millat, Vatan va inson tarixi, taqdiri bilan uyg'unlashib ketsa, adabiyotning ma'rifiy-estetik qiymati yanada ulug'lashadi.

Iqbol Mirzo – Vatan tarixi, taqdirini qismat deb bilgan shoirlardan. Uning bu mavzudagi she'rlari o'ziga xos iforga ega. Shoir xalq tarixi orqali millat qalbini, dardini o'z ovozi va so'zi bilan kuylagan.

*Manglayga kaft qo'yib olisga boqsam,
Edildan ko'rinar bo'ylaring, o'zbek.*

Faqat bizning momolargagina xos bu holatni shoir aynan topib keltirgan. Odatda, kekxa onaxon va otaxonlarimiz olisga ketgan, sog'inib intiq bo'lgan yaqin kishisi, jigarbandini shunday parishonxotir kutayotgani ko'z oldimizga keladi. She'rda ham o'zbek ulusi tarix sahnida O'rxun-Enasoy, Edil – Volga bo'ylarida xoqonlik qilib, yurt so'raganiga ishora qilinadi.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, “o'zbek” degan so'z ilk bor paydo bo'lganida ot turkumidagi emas, sifat turkumiga oid, xuddi turk so'zining ma'nodoshi bo'lib, “o'ziga ishonuvchi”, “mustaqil fikrlovchi” va “ish tutuvchi”, “botir”, “mard”, “yovqur”, “chekinmas” singari fazilatlarini anglatgan. Shunday fazilatlariga ega er kishilar o'zbek deb olqishlangan. Shoirning “O'zbek” she'rda ana shu mazmun ustuvor. O'zbek deb ot qo'ya boshlaganlaridan beri esa bu so'z sifat turkumidan ot turkumiga ko'chib o'tib, asosan, kishi ismi yoki taxallusini anglatuvchi so'z tarzida qo'llanila boshlangan.

Tarixiy shaxs O'zbekxon nomi ham aslida taxallus bo'lib, uning asl ismi Sulton Muhammadxon bo'lgan. Xalqimizning asosiy qatlami esa Alp Er To'nga, O'g'uzxon zamonlarida, undan ham ko'p asrlar avval – qadim-qadim davrlardan buyon Turon zaminda tubjoy xalq bo'lib yashab, XV– XVI asrlardan e'tiboran xalqimiz o'zini o'zbek deb, Turon, Turkiston deb yuritilib kelingan Vatanimizning nomi esa O'zbekiston deb nomlana boshlangan. Binobarin, she'rda Alp Tegindan Alpomishgacha, To'maridan Kumushgacha bo'lgan ajdodlarning o'zbekligi, o'zligi birma-bir tasvirlanadi. Shoir o'zbekning qismatidan ham hikmat izlaydi; uning nomi va shoni, boy ma'naviy merosi toptalib, o'zi yomonotliq qilinsa-da, “bizning qayg'umiz yo'q boladan boshqa”, deya armonli o'tmishiga sabr qilgan:

*Sargashta kun ko'rding ohu misoli,
Shundan hamon mungli kuylaring, o'zbek.*

Shoir o'zbek xalqi timsolida ajdodlar xotirasini ko'radi. Zero, ulug' mutafakkirlar, sarkardalarga vorisiylik o'zbek farzandlarining iftixori, g'ururidir. Mustaqillik bu ne'matlarni O'zbekistonga yana taqdim etmoqda.

*Sen borsan – Temurning ulug' vorisi,
Osmoningga qaytdi oylaring, o'zbek.*

Vatan tushunchasi millat tarixidan ayro emas. Ammo bu tarix sobiq sho'ro tuzumi davrida xalqdan uzib qo'yildi. Istiqlol bugungi avlodni, avvalo, manqurtlikdan ozod qildi, desak to'g'ri bo'ladi. O'zbek tarixi saboqlarini badiiy talqin etish orqali shu kem-

tiklik to'ldirilmoqda. Iqbol Mirzo she'rlari, jumladan, “O'kinch” she'ri buning dalili bo'la oladi:

*Menkim, Yofas o'g'li, saga qog'oni,
Tangri yorlig' berdi – bag'ri but bo'ldim.
Tarix otasining bosh qahramoni –
Oltoydan Yoyiqqa tangriqut bo'ldim.*

Eng qadimgi adabiy yodgorliklarda turk xoqonlarining tuzgan ulkan davlati, Alp Er to'ng'a, Bilga xoqon shuhrati qayd etilgan. Xususan, 1428-yili Dashti Qipchoqning Sharqiy qismi Janubi-g'arbiy Sibirda Abulxayrxon asos solgan davlat O'zbek ulusi hisoblanadi. O'zbekxon nomi bilan bog'liq bu hudud, Orol dengizining shimoliy qirg'oqlaridan to Irtish daryosining o'rta oqimlarigacha, Sharqda Sarisu va Chu daryolaridan g'arbda Yoyiq (Ural) daryosining so'l sohillarigacha bo'lgan yerlarni qamrab olgan.

O'zbekiston, Turkiston so'zlarining o'zagi bir ma'noni anglatishi nazarda tutilsa, uning tarixi abadiyatga muhrlangan timsollar bilan ulug'. Iqbol Mirzo bu salaflarni she'rda shunchaki qayd etib qolmay, xalqning yurak qo'ridan o'tilib chiqqan kechinmalarini mohirlik bilan izhor etadi. Lirik qahramon xalqning umumlashma obrazini o'zida ifoda etadi. U Yofasdan boshlab Er To'ng'a, Sohibqiron, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi jahonga dovrug solgan sarkardalar birlashtirgan elning charx-u kajraftor tufayli to'zg'ib ketishi, “G'anim ham, dushman ham, yog'iy ham, yov ham O'zimga o'zimdir, o'zimga o'zim”, deb o'kinishi bejiz emas: uning tarixida qo'sh unvonli sultonlar, shoh-u xoqonlar o'tgan. Turon otliq o'lkani kengligi xayolotga sig'may, eng mashhur olimlarni dunyoga yetishtirib berganligi she'riy misralarni ilmiy dalil bilan boyitishga xizmat qiladi.

*Qani Nil sathini o'lchagan miqyos?
Qani qal'a olmoq, berkitmoq qo'rg'on?
Asli unutilsa, qaydadir qiyos?
Chaqmoqtosh “qars” etdi – mana, Turkiston.*

Bu satrlarni o'qigan zukko kitobxon mushohada yuritishga kirishadi. Natijada Ahmad al-Farg'oni boshchiligidagi abbosiy xalifa al-Mutavakkilning amri bilan 861-yili Qohira shahri yaqinidagi Nil daryosining suv sathini o'lchash maqsadida qurilgan inshoot “Miqyos an-Nil” deb atalishidan voqif bo'ladi. U murabba shaklidagi quduq ko'rinishida bo'lib, Nil daryosi bilan uchta yer osti suv yo'llari orqali tutashgan. Shundan ham anglashiladiki, Iqbol Mirzo bugungi avlodga Ahmad Farg'oni kabi dunyo tamadduniga g'isht qo'ygan olimlar bilan faxrlanish, qiyoslashga asos bo'lgulik zamin haqida ash'or bitgan.

Lirik qahramonning kechinmalari olis tarixdagi yaxshi-yomon xotiralar bilangina cheklanmaydi. U yaqin o'tmishimizda sodir etilgan ko'rguliklarni ham she'rga soladi:

*Daryolar jo'sh ura, ko'pirar ummon,
Mo'g'ul, turk, chig'atoy, o'zbek bo'ldi jam.
Tiz cho'k, dedi zobit tizzamga tepib,
Yo'qsul, deb bo'ynimga tavqini ildi.*

*Muzaffar kechmishni bo'lgaymi topib?
Chorasiz bosh egdim, chor qatl qildi...*

Aytish mumkinki, bu tarix zamondosh o'quvchiga, yetmish yillik totalitar tuzumda “jimgina” umrguzaronlik qilgan avlod uchun ayon haqiqat. Shoir xalqning qalb ummonida zalvorli yuk singari cho'kib yotgan bu o'kinchlarni anglagan holda teran aks ettiradi, degan gap bor. Shoirda ishonch bor: zamon charxpalagining saboqlari, tajriba va bilimi davr sohibi bo'lishga kifoya qiladi.

*Ming bitta ismingni yod etdim, Alloh,
Rahmatingni yog'dir, bag'ri but bo'lay!
O'zingsan boshpanoh, sen olampanoh,
Baxt bergil: men yana Tangriqut bo'lay!*

Iqbol Mirzo shu tariqa xalqni she'r ko'magida qayta o'ziga tanishtiradi: o'zbekni madh etib, o'tmishiga nigoh tashlaydi. Kelajagidan bashorat qiladi. “Borgan joyin obod qilgan Boburlari, Mazlumlarni ozod qilgan Temurlari. Tog'lardan ham balandroqdir g'ururlari” bo'lgan o'zbekning ringga chiqqanda mushtini ko'rishni ta'kidlab o'tadi. Iqbol Mirzo she'riyati o'zbekning o'zligini tanitish, o'sib kelayotgan yosh avlodga uning tarixini uqib, tafakkur yuritish, “xohlagan suv oladigan ko'lmas o'zbek”ligini anglatishga hissa qo'shib kelayotgani bilan ahamiyatlidir. Biz shoirning xalq tarixiga oid ayrim she'rlari haqidagi mulohazalarimizni bildirdik, xolos. Iqbol Mirzo ijodida yurt va millat tarixi shu qadar keng va serqirra ifodaga egaki, ular kelajakda yirik tadqiqotlar uchun asos bo'la oladi.

O'zbek mumtoz adabiyotida Navoiy va Bobur singari sohibi qalam iste'dodlari bu borada yorqin timsol bo'lsa, XX asr boshlaridagi jadid adiblari yurt qayg'usini kuylagan porloq yulduzlar edi. Ular Vatani, ona-yurtini sajdagoh kabi muqaddas bilgan, uning ozodligi uchun o'lmoqni tiriklik saodati deb hisoblagan, “jonimiz-la barobar mahbubimizdir”, “panohim, sajdagohim, umidim” deb tarannum etgan.

Iqbol Mirzoning xalq va yurt mavzusidagi she'rlari o'zaro uzviylik va izchillikka ega. Shoir o'zbek haqida fikr yuritganda umuman qadimgi turkiy xalqlarning tamadduni, olis tarix hikoyalarini so'zlasa, Ona-yurt mavzusidagi she'rlarida istiqloлга erishgan O'zbekiston tarannum etiladi:

*Samandarsan – olovlardan sog' chiqqan,
Buzrukvorsan – yetti o'g'li shoh chiqqan,
Alpomishsan – ko'ksidan chaqmoq chiqqan,
O'lmas dostonim mening, O'zbekiston,
Jon ichra jonim mening, O'zbekiston!*

Shoir tashbehleri o'rinli. Boshida shuncha tegirmon toshi yuritilsa ham o'z nomi, o'zligi va nasabini, bosqinchilik va qatag'onlik olovlariga bardosh berib, istiqloлга erishgan yurtning shuhrati doston bo'lgulik. Bu yurt alpomishlar yurti, ota makon, ona tuproq va sajdagoh sifatida alqanishi ham silsilaviy davom etib kelmoqda. Bu tuyg'u o'z yurtiga sadoqatli farzandlarga ilhom bag'ishlab, uning istiqboliga xizmat qila oladi. Shu ma'noda Iqbol Mirzoning ona-yurt va xalq haqidagi turkum she'rlari yosh avlodning ma'naviy barkamolligini ta'minlash bilan birga, ularni yurt ko'riga yaraydigan, Vatanini sajdagoh kabi muqaddas bilgan komil inson bo'lib yetishishlarida hissa qo'shishiga shubha yo'q.

Bashorat JAMILOVA,
filologiya fanlari doktori,
Buxoro davlat universiteti professori

Ehtirom

Samarqand viloyati nafaqat O‘zbekiston, balki jahon sivilizatsiyasiga buyuk o‘g‘il-qizlarni yetishtirib bergan tarixiy mintaqadir. Akademik Shuhrat Sirojiddinov ham Samarqandning Kattaqo‘rg‘on tumanida tug‘ilib, voyaga yetdi. Bugun u nafaqat nufuzli oliy ta‘lim muassasasining rahbari, balki mohir pedagog, yetuk olim, akademik va iste‘dodli yozuvchi hamdir. Qaysi lavozimda faoliyat yuritmasin, uning asosiy maqsadi ilm-fanga xizmat qilish va uni rivojlantirish bo‘ldi.

Ko‘pincha farzandlar ota-onasining kasbini davom ettirmaydi, hayotda o‘z yo‘lini tanlaydi. Bu tabiiy hol va buning uchun hech kimni ayblab bo‘lmaydi. Biroq Shuhrat Sirojiddinovning hayot yo‘li bolalikdan shakllangan ma‘naviy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini o‘zi quyidagicha eslaydi:

– Uyimizda ota-bobolarimiz qoldirgan qadimiy qo‘lyozmalar sandig‘i bor edi. Otam ko‘pincha “Ularni kim o‘qiydi, kim o‘rganadi?” deb tashvishlanardi. Bugun esa tanlovim tasodifiy bo‘lmaganini tushunaman. Bolaligim o‘tgan muhit, otamning adabiyotga bo‘lgan muhabbati, uyimizga tez-tez kelib turadigan taniqli yozuvchi va olimlar, shuningdek, yosh-

vaqlar bu mavzuni o‘zim tadqiq etishni rejalashtirgandim, endi bu izlanishni siz davom ettiring”, deyman. Shu tariqa ilmiy g‘oyalarning davomiyligini shogirdlarim orqali ta‘minlashga harakat qilaman.

Ha, Shuhrat Sirojiddinovdek ijodkor olim bo‘lish oson emas. Buni u bilan suhbatlashgan har bir kishi his qilishi mumkin. Bir necha bor rektor qabuliga borganimda, kotiba muloyimlik bilan uning navbatdagi uchrashuv yoki xizmat safari bilan band ekanini aytardi. Ertasi kuni ham xuddi shunday holat takrorlanardi. Ish nihoyatda ko‘p bo‘lishiga qaramay, u ilmiy izlanish va ijod uchun ham vaqt topa oladi.

– Inson eng yaxshi asarlarini yoshligida yaratadi, – deydi u. – Agar yoshligida



REJA, MEHNAT VA MUVAFFAQIYAT FALSAFASI

ligimdan meni qurshab turgan qadimiy kitob va qo‘lyozmalar bilan bog‘liq yo‘l bu. Doimo aytaman: hayotda hech narsa tasodifan sodir bo‘lmaydi. Ilm yo‘li doimiy mehnatni talab qiladi, shuning uchun ishda band bo‘lishimga qaramay, har doim biror narsa yozish, tarjima qilish yoki o‘qishga harakat qilaman. Ba‘zan charchoq va bosh og‘rig‘iga sabab bo‘ladigan tashvishlar ko‘p bo‘ladi, ammo olimlik burchi va mas‘uliyati ortga chekinishga yo‘l qo‘ymaydi. Shu bois kechqurunlari yoki yakshanba kunlari albatta yozishga vaqt ajrataman. Hech bo‘lmasa biror fikrni qog‘ozga tushirib qo‘yaman, keyinroq bo‘sh vaqt topganimda o‘sha qaydlar ustida ishlashni davom ettiraman.

Ilgari yangi asar ustida ishlashni boshlaganimda, butunlay o‘sha mavzuga sho‘ng‘ib ketardim. Masalan, XV asr tarixini tadqiq qilsam, go‘yo o‘sha davrga qaytgandek yashar, o‘sha zamon manbalarini mutolaa qilar, har bir tafsilotni sinchiklab o‘rganardim. Fikr-u xayolim butunlay tadqiqot bilan band bo‘lardi. Bugun esa amalga oshirmoqchi bo‘lgan ko‘plab ilmiy g‘oyalarni shogirdlarimga ishonib topshiraman. Ularga “Bir

bilim xazinasini to‘plashga ulgursa, keyingi umri davomida ana shu boylikni tobora chuqurroq ochib, undan samarali foydalanadi. Qirg‘yoshgacha izlanishi, kurashishi, ba‘zan moddiy qiyinchilik va turli cheklavlarni ham boshdan kechirishi kerak. Bu shakllanish davri. Agar shu bosqichni munosib bosib o‘tsa, keyingi hayotida ancha ishonch bilan yashaydi, tajribalarini tahlil qiladi, xatolaridan saboq oladi va jamiyatga ko‘proq foyda keltirishga intiladi. Oltmish yoshdan keyin esa donolik davri boshlanadi. Bu paytda inson tajribasi bilan boshqalarga yo‘l ko‘rsatadi, maslahat beradi va ularga madad bo‘ladi.

Bu hayotiy tamoyilni u o‘z farzandlari tarbiyasida ham qo‘llaydi. Chet elda tahsil olgan, grantlar yutgan ikki o‘g‘li haqida faxr bilan gapirar ekan, ularga doim shunday nasihat qilishini aytadi: “Men otam bosib o‘tgan mashaqqatli, ammo ijodiy jihatdan sermahsul yo‘lni tanladim. Sizlarga tayyor va oson yo‘lni bera olmayman. Har kim hayotda o‘z yo‘lini o‘zi topishi kerak”.

Shuhrat Sirojiddinov hayotini doimo aniq maqsad va reja asosida tashkil etishga odatlangan. U besh yil, o‘n yil va

undan keyingi rejaralarini oldindan belgilab yashashga intilgani haqida shunday deydi:

– Butun umrimni reja asosida yashashga harakat qildim. To‘qson yoshdan keyin nima bo‘lishini esa vaqt ko‘rsatadi. Unga cha hali amalga oshirishim kerak bo‘lgan ishlar juda ko‘p.

Alisher Navoiy bilim olishda bir nechta bosqichni ajratib ko‘rsatadi: savod chiqarish va fan asoslarini o‘rganish, keyin ularni tushunish va nihoyat, amaliy qo‘llash. U har bir bosqichda nafaqat bilim olish, balki uni chuqur tushunish va hayotda qo‘llash ham muhim deb hisoblagan. Shuhrat Sirojiddinov hayoti davomida Navoiy qo‘lyozmalarini o‘rgandi.

– Dissertatsiya yoqlagandan so‘ng Navoiyning diniy qarashlari haqida universitet jurnaliga maqola yubordim. Rad etildi, mavzu juda murakkab va xavfli deb aytilshdi. “Navoiy kimni sevgan?” nomli maqola yozdim. Toshkentga borib, uni ham turli joylarda chop ettirishga harakat qildim, ammo hamma joydan rad javobini oldim. Nihoyat, Yashar Qosimov bilan birga Omon Matjon bosh muharriri bo‘lgan “Yoshlik” jurnaliga murojaat qildim. Ularga qo‘lyozmalarini ko‘rsatdim, xulosalarimni tushuntirib, dalillar keltirdim. Omon Matjon diqqat bilan tingladi va oxir-oqibat maqolani chop etishga qaror qildi – bu uning yosh ijodkorga ko‘rsatgan ezgu e‘tibori edi. Maqola nashr etilgandan so‘ng jamoatchilikning katta noroziligiga sabab bo‘ldi, u butun mamlakat filologlari va yosh tadqiqotchilar orasida muhokama qilindi. Keyinchalik Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida yangi ma‘lumotlar beruvchi maqolalarimni chop ettirishda davom etdim. “Guliston” jurnali muharriri Azim Suyun ham maqolalarimni chop etishda yordam bergan edi. Men bu izlanishlar orqali hech qachon nom qozonish, mashhur bo‘lishni ko‘zlamaganman, faqat maqsadim – yangi ma‘lumotlar-



Flora FAXRUTDINOVA, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi

AN’ANA VA VORISIYLIK DIALEKTIKASI

Ta’kid

Ilm-fan taraqqiyoti, mohiyat e‘tibori bilan bilimlarning shunchaki sun‘iy yig‘indisi yoki dalillarning davriy ketma-ketligi emas, balki avlodlar o‘rtasidagi murakkab ma‘naviy uzviylik jarayonidir. Ilmiy qarashlarning almashinuvi ko‘pincha eski tamoyillarning inkor etilishi bilan kechsa-da, chinakam ilmiy maktablar o‘z poydevoridagi tub an‘analarni va “yashirin bilimlar”ni ustozdan shogirdga uzatish orqali bardavomlikni saqlab qoladi. Ushbu uzviy va ziddiyatli jarayonni tadqiq etishda asl tarixiy haqiqatni shaxsiy xotiralar ko‘zgusidan o‘tkazuvchi ilmiy-xotira asarlari beqiyos manba vazifasini o‘taydi. Shu ma‘noda, akademik To‘ra Mirzayevning “Ustozlar, safdoshlar, izdoshlar” (2021) nomli kitobi o‘zbek gumanitar fani, xususan, folklorshunoslik maktabining yarim asrlik tadrijiy taraqqiyotini muallif shaxsiyati va uning ilmiy mushohadalari orqali ko‘rsatib beruvchi noyob falsafiy-tarixiy hujjat hisoblanadi.

Muallif kitobning muqaddimasida-yoq asarning bosh maqsadini “o‘zbek folklorshunosligi fanning yangi sohasi sifatida shakllanishi va uning XXI asrdagi taraqqiyoti to‘g‘risida muayyan bir tasavvur bera olish”, deya belgilaydi. Biroq bu “tasavvur”ni shakllantirishda olim shunchaki tarjimaiy holga oid ma‘lumotnoma yoki quruq dalillar bayoni bilan cheklanmaydi. U ilmiy maktabning ichida yashagan, uning yutuq va yo‘qotishlarini o‘z qalbidan o‘tkazgan faol ishtirokchi sifatida voqea-hodisalarini shaxsiy kuzatuv va ichki kechinmalar orqali ichkaridan yoritish hamda matn zahiridagi yashirin mohiyatni teran sharhlash usulini qo‘llaydi. Bu esa voqealarni “boshqani zahriga orqali o‘zini namoyon qilish” falsafasiga olib chiqadi.

Taniqli adabiyotshunos olim, professor Ibrohim Haqqul asarga yozgan so‘zboshisida To‘ra Mirzayevning ushbu tadqiqoti o‘ziga xosligini va matn ortida yotgan muallif shaxsiyatini g‘oyat aniq ifodalab beradi: “Amalga oshirilgan ishlarda ana o‘sha tashabbus sohiblarining faqat faoliyati emas, umr mazmuni ham ifodasini topgan. To‘ra Mirzayev qanaqa mavzuda yozmasin, tabiiylik va xolislik ularning asosiy xususiyatiga aylanadi... Inson esa ko‘pincha zohiriga qarab botindan nimalar kechganini o‘ylab ham o‘tirmaydi. To‘ra aka eng muhim ish va harakatlarda ichki va tashqi mutanosiblikni unutmadi”.

Ilmiy vorisiylikni ta‘minlashdagi eng muhim omillardan biri aynan mana shu – “ichki va tashqi mutanosiblik” edi. Fan tarixida shakllanadigan “ustoz-shogird” munosabatlari faqatgina ma‘lumotlarni qabul qilib olish yo‘li emas, balki axloqiy-ruhiy tarbiya vositasidir. Professor I.Haqqul ta’kidlaganidek, asardagi qahramonlar (Hodi Zarif, G‘ozi Olim Yunusov, Abdurauf Fitrat va boshqalar) siymosini yoritishda “To‘ra Mirzayevda kitobiy bir ustozparastlik, yasama salafshunoslik yo‘qligi” muallifning ilmiy haqiqatga bo‘lgan yuksak sadoqatini va tadqiqotchi-guvoh sifatidagi xolisligini ta‘minlaydi.

Ilm-fan tarixi faqatgina erishilgan yutuqlar va kashfiyotlar silsilasidan ibo-

rat emas, u, shu bilan birga, boy berilgan imkoniyatlar, yo‘qotilgan noyob manbalar va bu fojialarni o‘z ichidan o‘tkazgan olimlarning botiniy iztiroblari tarixi hamdir. Xotiraning mo‘rtligi va uni kelajakka yetkazishdagi insoniy mas‘uliyat ilmiy bardavomlikning eng og‘ir yuki hisoblanadi. To‘ra Mirzayev o‘z asarida ustozlarning ruhiyatiga chuqur kirib borar ekan, o‘tmishdagi ma‘naviy yo‘qotishlar faylasuf-olim qalbida qanday qilib tarixiy mas‘uliyat va hatto o‘zini aybdor his qilish tuyg‘usini shakllantirganini teran yoritib beradi.

Ushbu falsafiy mohiyat kitobdagi birinchi o‘zbek professori G‘ozi Olim Yunusov qismatiga bag‘ishlangan sahifalarda eng yuqori cho‘qqiga chiqadi. 1937-yildagi qatag‘on tufayli ulkan olimning nafaqat o‘zi, balki uning yillar davomida yaratgan ming sahifalik “O‘zbek tilining ilmiy grammatikasi” kabi noyob qo‘lyozmasi ham izziz yo‘qoladi. Bu shunchaki bir kitobning emas, balki millat ilmiy tafakkurining butun bir qatlami yo‘q qilinishi edi.

To‘ra Mirzayev Hodi Zarifning bu voqeaga oid xotiralarini keltirar ekan, ustozning qalb isyoni va botiniy iztirobini qog‘ozga tushiradi: “Eh, u davr g‘oyatda og‘ir yillar edi. Bugun o‘sha voqealarni eslasam, shunday noyob va boy merosning butunlay yo‘qolib ketishida qay bir nuqtalarda o‘zimni ham aybdor hisoblayman... Tog‘am esa o‘zi yozib olgan va to‘plagan materiallarni hamon o‘z uyida saqlardi. Bu materiallarni Folklor arxiviga olishda sust-kashlik qildik. Agar tog‘amni ko‘ndirib, 1934-1935-yillari materiallarni arxivga olganimizda, yo‘qolmay, saqlanib qolgan bo‘larmidi?”.

Ushbu iqrar ilm-fanda vorisiylik falsafasining eng nozik nuqtasini ochib beradi. Hodi Zarifning “o‘zini aybdor hisoblashi” – bu shaxsiy nuqson emas, balki avlodlar oldidagi buyuk tarixiy mas‘uliyatning namoyon bo‘lishidir. To‘ra Mirzayev bu o‘rinda shunchaki voqeani qayd etuvchi tarixchi emas, balki olimning ichki fojiasini va ma‘naviy mas‘uliyat yukini tahlil qiluvchi faylasuf sifatida maydonga chiqadi.

Yo‘qotilgan ilmiy merosning o‘rnini to‘ldirish umidi va ularni asrab qololmaganlik iztirobi – ilmiy maktab vakillari uchun o‘ziga xos axloqiy saboqdir. Asar muallifi bunday tarixiy yo‘qotishlarni yodga olish orqali keyingi avlod tadqiqotchilariga muhim bir haqiqatni uqtiradi: ilmga sadoqat faqatgina yangi asarlar yaratish bilan emas, balki yaratilgan merosni kelajakka beshikast yetkazishdagi buyuk mas‘uliyat bilan o‘lchalanadi.

Ilm-fanda “ustoz-shogird” va “saf-doshlik” munosabatlaridagi sadoqat haqiqatni anglashga doir teran axloqiy tushunchadir. Chin ma‘nodagi ilmiy sadoqat – bu marhum safdoshlarning ilmiy g‘oyalarni, ularning yarim qolib ketgan merosini unutilishdan asrab qolish va kelajak avlodlarga beshikast yetkazish demakdir. Biz buni “ilmiy bilimni omonat saqlash falsafasi” deb atashimiz mumkin. To‘ra Mirzayev o‘zining xotira-tadqiqotida ushbu nodir hodisani Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan iste‘dodli navoiyshunos Olim Sharafiddinov va uning safdoshi Hodi Zarif munosabatlari misolida g‘oyat ta’sirchan ochib beradi.

Asarda qayd etilishicha, Olim Sharafiddinov Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida birinchilardan bo‘lib asosli va salmoqli tadqiqot yaratgan, ammo urush tufayli bu izlanishlarning to‘liq nashrini ko‘rish unga nasib qilmagan edi. Shu o‘rinda ilm yo‘lidagi sadoqatning oliy ko‘rinishi namoyon bo‘ladi: Hodi Zarif marhum safdoshining nodir qo‘lyozmasini yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida o‘z uyida ko‘z qorachig‘idek asrab keladi. U bu qo‘lyozmani unutilishga mahkum etmaydi yoki undan o‘z nomidan foydalanishdek “oson yo‘l”ni tanlamaydi. Aksincha, vaqti-soati yetib, ilmiy davomchilar voyaga yetgach, qo‘lyozmani muallifning kuyovi – yosh olim Erik Karimovga topshiradi.

To‘ra Mirzayev bu tarixiy lahzani shunchaki qayd etmaydi, balki ustozning so‘zlari orqali unga chuqur ma‘naviy va ilmiy-ma‘rifiy baho beradi: “Bu qaynangiz Olim Sharafiddinovning Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi monografiyasining qo‘lyozmasi... Endi bemalol ota ishini davom ettirishingiz, bu qo‘lyozmaning qadriga yetib, uni nashrga tayyorlashingizga ishonaman. Bugun ana shu ishonch bilan uni sizga topshirmoqdaman”.

Ushbu matn parchasi ilm-fanda avlodlar almashinuvi an‘anasi qanday ishlashini ko‘rsatuvchi bebaho dalildir. Bu yerda “omonat” faqatgina ashyoviy qog‘oz (qo‘lyozma) emas, balki butun bir ilmiy g‘oya va maktabdir. Hodi Zarifning bu xatti-harakati ortida muallif ilmiy jamoaning axloqiy poydevorini ko‘radi: ilmga hech bir fidoyilik izziz ketmasligi kerak va tiriklar zimmasida marhumlarning ilmiy haqiqatlarini yuzaga chiqarishdek muqaddas burch yotadi.

Shu tariqa, “Ustozlar, safdoshlar, izdoshlar” kitobi avlodlarning ilmiy bog‘liqligini shunchaki nazariyalar al-



maslinuvi emas, balki olimlarning o‘zaro ma‘naviy mas‘uliyati, vijdoni va “ilmiy meros omonati”ga bo‘lgan sadoqati sifatida falsafiy jihatdan asoslab beradi.

Ilmiy maktablarning poydevori faqatgina buyuk nazariyotchilarning olamshumul kashfiyotlaridangina iborat bo‘lmaydi. Bu muhtasham binoning tik turishi va yashab qolishini ta‘minlaydigan asosiy kuch – ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladigan, tahsin va rag‘batsiz bajariladigan “ko‘rinmas mehnat” egalaridir. Ilm-fan tarixida buni ilmiy fidoyilik va xokisorlik falsafasi (ilm yo‘lidagi o‘ziga xos tarkidunyoichilik) deb baholash mumkin. To‘ra Mirzayev o‘z asarida ilm dargohining ichki tayanchi bo‘lgan shunday fidoyilar qiyofasini olima Zubayda Husainova faoliyati misolida g‘oyat ta’sirchan va yuksak ehtirom bilan chizib beradi.

Asarda tasvirlanishicha, Zubayda Husainova ellik yil davomida Folklor arxivining saqlovchisi sifatida mehnat qilib, millatning bebaho og‘zaki merosini asrab-avaylashdek sharaflari, ammo niho-yatda mashaqqatli ishini o‘z zimmasiga oladi. Bu shunchaki xizmat vazifasi emas, balki butun borlig‘ini ilmga baxshida etishning oliy namunasidir. Muallif olimning ishga bo‘lgan munosabatini oddiy, ammo juda teran ma‘noga ega bo‘lgan maishiy tafsilotlar orqali ochib beradi: “Arxiv xonasiga farroshlar kiritilmas, ularga tegishli vazifalarni ham opaning o‘zi bajarardi... Har bir saqlov birligida asarlarning mundarijasini ko‘rsatuvchi ochiqchilar tayyorlanishi kerak. Ana shu oc qichlarning bari Zubayda Husainova tomonidan tayyorlangan va o‘z qo‘li bilan yozilgan”.

Ushbu jumlarlar zahirida ulkan falsafiy ma‘no yotibdi. Qog‘ozlarni changdan tozalash yoki minglab sahifalik mundarijalarni qo‘lda yozib chiqish zohtiran oddiy qora mehnat bo‘lib ko‘rinsa-da, botinan bu – ilmiy qadriyatlariga ko‘rsatilgan eng yuksak muhabbatdir. Farroshlarni qo‘lyozmalar saqlanadigan xonaga kiritmaslik ortida millat ma‘naviy boyligiga nisbatan onalik mehri va asrovchilik tuyg‘usi mujassam.

(Davomi 16-betda.)

Taassurot

QUYOSHGA AYLAN, EY CHO'G'!

(O'zbektosh To'raxonli she'rlariga chizgilar)



O'zbektosh – ajoyib fe'lli yigit. Bunday fe'll ko'pincha ijodkorlarda uchraydi, ayniqsa, shoirlarda. Chunonchi, O'zbektosh bir paydo bo'ladi, yozgan asarlarini ko'rsatadi, munosabatni qabul qilib oladi, keyin bir necha yil domdaraksiz ketadi. Ammo ma'lum bir fursat o'tib (qanchaligini uning o'zi belgilaydi) yana qarshingizdan chiqadi-da, hech qanday gina-kuduratsiz yangi bitiklarini taqdim qilib qoladi. Ana shunday beg'araz, beg'ubor, qaysidir ma'noda, soddadilligi uchun ham sira og'rinmay uning yangi daftarini varaqlay boshlaysiz.

O'zini O'zbektosh To'raxonli deya san'at-u adabiyot olamiga tanitib kelayotgan ijodkor do'stimiz nasr, nazm va drama sohasida birdek qalam tebratadi. Shu choqqacha uning "Quvonch"(2006), "Oq va qora"(2009), "Qochoq kuyov"(2011) hikoya va qissalar to'plami nashr etilgan. 2022-yili "Ertaklar to'plami", 2024-yili esa "Ko'ksimdagi tumorim Vatan" nomli she'riy kitobi o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan.

O'zbektoshning asl ismi Asqarjon. Familiyasi ham boshqacha – Qilichev. Biroq u "O'zbektosh" taxallusi yonida To'raxonli degan taqma otning ham bo'lishini ma'qul ko'radi: O'zbektosh To'raxonli. Bu bilan u go'yo Vatanining shonli o'tmishiga havas qilib, o'zidan boshlab barcha vatandoshlarining to'ra-yu xonlardek baland maqomlarda bo'lishini istaydi. Agarda men uning beg'araz ko'nglini oz-moz tanimagan bo'lsam, bunday jarangdor taxallusdan andak g'ashlangan, "oldin shunday nomga yarasha ishni qotirib qo'y!", degan, hech yo'q, ko'nglimdan o'tkazgan, shoirni yanigan bo'lardim, ehtimol. Yo'q, bu safar men g'ashlanmadim, chunki O'zbektoshning beg'ubor ko'nglida Vatan sevgisi va unga munosib bo'lish orzusi borligiga ishonaman. Bunga uning ko'pdan ko'p bitiklari dalil.

Vataniga, millatiga bo'lgan mehri tufayli ham Asqar o'ziga O'zbektosh degan g'oyat jarangdor, ayni damda, tanlagan ijod yo'liga mos va xos taxallusni ma'qul ko'rgan. Xo'sh, nega bunday deya'miz? Chunki u o'zbek haqida, O'zbekiston to'g'risida ko'p yozadi. Masalan, "Hazrati o'zbekim" she'rida shunday misralar bor:

*Ko'kdagi ko'kbo'ri – O'zbekistonim,
Turon merosxo'ri – O'zbekistonim,
Azaldan asli pok hazrati o'zbek,
Osiyoning zo'ri – O'zbekistonim.*

O'zbektoshning beg'araz, beg'ubor, soddadillik bahs etdik. Ehtimol, u hayotda bunday emasdir – olg'ir-u ustamondir, buni bilmayman. Lekin dunyoni badiiy-estetik tafakkur qilish bobida tozaligi, chapaniligi seziladi. Chunonchi, "Osiyoning zo'ri – O'zbekistonim" degan misrasida ana shu beg'uborlig-u soddadillik ufurib turibdi. Axir shoir jindek siyosiy hushyor bo'lganida "ushbu misram qolgan osiyoliklarni xafa qilib qo'ymasmikan?" deya barchaga birdek yoqadigan satrlar tizmasidimi? Tizardi. Ammo O'zbektosh bu yo'ldan bormaydi, u ko'nglida o'z yurtining barchadan zo'r bo'lishini xohlaydi, bas, bitiklariga ham shu istak toshib chiqadi. Shoir she'rni shunday yakunlaydi:

*Hazrati o'zbekim, hazrati o'zbek,
O'zbektoshning ori – O'zbekistonim.*

Demak, Asqarning "O'zbektosh" degan taxallusi vatanning, O'zbekistonning nomi bilan chambarchas bog'liq.

Ha, O'zbektosh To'raxonli ildiziga munosib bo'lishni yaxshi ko'radi. Bu istak uning tanlab olgan taxallusidan tortib, yozgan she'rlarigacha – barcha-barchasida aks etib turadi. She'rlardagi aksni kuzatishda davom etamiz:

*Kimdir meni oshkor g'arb tomon boshlar,
Allakim tuzog'in shimolga tashlar,
Quyoshga talpinib ko'zlarim yoshlar,
Men Sharq bolasiman, men Sharq bolasi...*

*Temurdek, Boburdek ozodman o'sha,
Alpman, Alpomishman, Farhodman o'sha.
Erkim uchun yongan faryodman o'sha,
Men Sharq bolasiman, men Sharq bolasi.*

Ijodkor, ayniqsa, shoir vatan va xalq ildiziga talpinmog'i, boshqalarni ham shunga undamog'i kerak, aslida. She'rda nazarda tutilgan g'arb, shimol... har qancha rivojlanib, zamonaviy tarz va tutumga ega bo'lmasin, insonning o'zi mansub bo'lgan eldan tonib ketishini qabul qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda O'zbektoshning da'vatlari o'zini to'la oqlaydi. Har band so'ngida takrorlanuvchi "Men Sharq bolasiman, men Sharq bolasi" degan anofora o'quvchiga shoirning asl muddaosini bot-bot eslatib turadi. Natijada o'quvchining botinida shoirga jo'r bo'lgan bir ovoz tug'ilib keladi-da, O'zbektoshga ergashib takrorlay boshlaydi: "Men Sharq bolasiman, men Sharq bolasi..."


Bir qarashda O'zbektoshning ko'pgina bitiklari da'vatkor, minbarbop bitiklardek, ular, masalan, Oybekning she'rini o'qigandagidek yolg'iz qolib, Xurshid Davron ta'biri bilan aytganda, maysaga yonboshlab zavqlanadigan she'rlar emasdek tuyuladi. Biroq u, o'rni kelganda, ko'ngilning intim kechinmalarini ham mahorat bilan qalamga oladi:

*Shafaqday ollanib seni sog'indim,
Daryoday sollanib seni sog'indim.
Oltin so'zli yurak keldi og'zimga,
Tillarim bollanib seni sog'indim.*

Oltin so'zli yurak... Ajoyib epitit!.. Shoir yuragini oltin so'zli qilgan kuch ishqidir. Aynan ishq tufayli oshiqning og'zidan chiqquvchi har bir so'z oltinga teng. She'rning yana bir sehri – uning ohangida. Umuman, O'zbektosh yaxshi ohanglarni topadi, topa biladi. Ayrimlar negadir she'rdagi ohangga mensimayroq qaraydi. To'g'ri, so'z emas, tuyg'u ohangi asos qilib olingan she'riyat ham bor. U ham o'zicha maftunkor. Biroq go'zal tuyg'u aks etgan she'rning shakli ham ohangdor bo'lsa, bunga nima yetsin! Bunday she'rlarda ohangning o'zi alohida mazmun kasb etadi. O'zbektosh bitiklarida ana shunday ohang sezilib-sezilib turadi.

O'zbektoshni ajib fe'lli yigit dedik. She'rlari ham xuddi fe'lliga o'xshaydi: bir qarasang, binoyidek, bir qarasang, hali to'pori ko'rinadi. Muhimi, har ikki holatda ham ichida yombiga aylanishga da'vogar misralar bor. Ana shu da'vogar misralar meni u haqda yozishga undab turibdi. Zero, bunday misralar har kimda, har qadamda ham uchrayvermaydi. Ularni chinakam yombilarga aylantirish uchun esa ko'p mehnat qilish kerak bo'ladi.

Yosh qalamkashlarning barchasi ustoz shoirning shu o'gitini o'zlari uchun qo'llanma qilib olmoqlari zarur, deb o'ylayman. O'zbektosh endi yosh emas, qirqni urib turibdi, biroq unga ham, bizga ham g'aliz so'z, misra ustida bot-bot ter to'kish ham farz, ham qarz. Zero, har



qanday ma'no, odatda, so'zni sayqallash orqali ochila boradi.

O'zbektosh xayol kuchi keng ijodkor. Bas, kutilmagan, ajabtovur misralar, bandlar "lop" etib qarshingizdan chiqib turadi:

*Visolingga zorman azob bo'lsang ham,
Nega sog'inyapman sarob bo'lsang ham...*

Nima, shoir sarobni sevadimi?.. Ha, ko'pincha, shunday bo'ladi o'zi. "Dunyo bizning tasavvurlarimizdan iborat" qabilida bir fikr aytgan edi Nitshe. Sevadigan inson qalbi muhabbatga to'la bo'ladi. Faqat uni izhor qilmoq uchun vosita – yorga ehtiyoj tuyadi. Lekin yor, mumtoz she'riyatimizda kuylangani kabi, ko'pincha zolim va parvosizdir. Buni his qilgan shoirning oshiq qahramoni yuragini kuydirib turgan baland ishq olovi va yor munosabati o'rtasida paydo bo'lgan chohga qulab turadi. Shunda uning ko'ziga hammasi, jumladan yor ham yolg'on – sarob bo'lib ko'rinadi. Ammo uning o'zga chorasi yo'q, zero, yuragida muhabbat lovullab turibdi, bas u dardiga "Nega sog'inyapman sarob bo'lsang ham..." deyishdan o'zga malham topolmaydi.

O'zbektosh xilma-xil mavzularda juda ko'p ijod qiladi. U hayotdagi har bir voqea-hodisani, ular tufayli ko'ngilda tug'ilgan har bir tuyg'uni she'rga solsam deydi. Muhimi, shoir ko'nglida Ezgulik, Yaxshilik, Umid cho'g'lari miltillab turadi. Chunonchi, u 2024-yili yozgan bir to'rtligida deydi:

*Ko'ngilda millatib yonib turgan cho'g'
Bir kuni quyoshga aylanguvsidir.*

O'zbektosh To'raxonli ko'nglida millatib yonib turgan cho'g'lar ko'p. Biz ularning quyoshga, quyoshlariga aylanishini kutib, sog'inib, duo qilib qolamiz.

Ulug'bek HAMDAM

Yaxshilar yodi



Tog'am Fayzi shoir Berdi o'g'li 1903-yili Yakkabog' tumanining Ajrim qishlog'ida tug'ilgan va o'tgan asrning 50-yillarida Qamashi tumanidagi Qo'shtamg'ali qishlog'iga ko'chib kelgan.



shoir "o'qib" (avrab) ket-kizib yuborgan ekan.

Xalq orasida Fayzi devona nomi bilan tanilgan Fayzi shoir Berdi o'g'li haqiqatan ham ilohiy qobiliyatga ega kishi bo'lgan bo'lsa ne ajab. Axir buyuk shoir Mashrab ham "Devonayi Mashrab" rutbasiga bejiz sazovor bo'lmagan.

OQQAN DARYO...

Fayzi shoirning ijodi, ta'kidlaganimizdek,

yodaki bo'lgan, biron-bir kitob yoki dostonni o'qib o'zlashtirmagan, eshitganlaridan, radioeshittirishlardan yodlagan, o'zidan qo'shib, rivojlantirgan. To'ylarda, davralarda aytgan doston va termalari, to'rtliklari yodimizda qolgan.

Tog'am Fayzi shoir haqida o'ylar ekanman, ba'zida bolalik kunlarim yodimga tushadi. O'sha vaqtlar hozirgiday karnay-surnaylar, gumbalang-qars musiqalar bo'lmagan. To'ylarda to'ning ustiga kinoning ovoz kuchaytirgich karnayini chiqarib, patefonda plastinka qo'yib Komiljon Otaniyozov, Ma'murjon Uzoqov, Olmaxon Hayitovlarning ashulalari, Ro'zimbek baxshi Murodovning "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonlari eshitilardi. Kechqurun bitta kino qo'yib berilardi. U zamonlar to'yda eng "zo'r odam" kinochi edi. Qishlog'imizda Yaxshiboy Mo'minov, Temir Xushvaqtov, keyinchalik Shahar Safarov kabi akalar kinochilik qilishgan. To'y egasi agar ularga tuzukroq qarashmasa, birdan chiroq o'chib qolar, yoki kino qizigan joyida to'xtardi. To'ylar ham boshqacha edi, unda mehr-oqibat, fayz bor edi. To'ylar ertalabdan kechgacha davom etar, ertasiga ertalab osh berilib, keyin ko'pkari yoki kurash bo'lar edi. Ungacha bo'lgan orada odamlar davra qurib, Fayzi shoirdan termalar eshitishardi. U "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li", "Ravshanbek", "Avaxon"dan kuylab, xalqni xushnud qilardi...

Shoir do'mbirasini qo'lga olib, boshini bir yonga eggancha ko'zlarini yumib xonishini boshlardi. To'yga kel-

gan mehmonlar soatlab o'tirib baxshini tinglashardi...

"Burun o'tgan zamonlarda, el-yurti omonlarda, mag'rib yo mashriq tomonlarda, Xorazmdan, Turkmandanma, Chambil yoxud Chilbirdanma so'ylayin? Go'ro'g'limi, Alpomishdan kuylayin?..", deb qo'shig'ini boshlardi. Xalq jon qulog'ini berib tinglardi. U davrlar boshqacha edi-da...

O'zi juvozda haydagan zig'ir yog'larini 10 litrlik idishlarda xurjuniga solib, Shahrisabzga borib, sotib keldi. Qo'lida doim do'mbirasi bo'lar edi. Borguncha ham, qaytguncha ham avtobusda odamlarga qo'shiq aytib berardi. Yo'lovchilar, ayniqsa, atrofdagi qishloqlar to'g'risida termalarga qiziqardi:

*Bunda bordim Langari,
Haydab qo'yilgan angari,
Kiygan kovushi zangori,
Boylarni ko'pini ko'rdim.*

*Kamarda bor Kattatoli,
Magazinchi To'ra kali,
Odamining bari vali,
Qishloqning zo'rini ko'rdim.*

*Manov tog'da Kaltatoyi
Bunda oqar Langar soyi,
Ko'pdir ming qo'yli boyi,
Baraka konini ko'rdim...*

Kunlarning birida qishloqdoshi Suyarboy uni "Falon kuni nevaralarining sunnat to'yi. Samarqandning Narpayiga borib oshnamni to'yga aytib keling", deb jo'natadi. Fayzi bobo aytuvchilikka ketadi. Otliq xabarchi bir-ikki kun yo'l yurib, manzilga yetadi, boyning uyini topgach:

— Hoy, kim bo-or, boy bobo-o, — deb tovush beradi.

Oz fursatdan so'ng ichkaridan bir ayol chiqib, deydi:

— Xo'jayin bozorga ketgandi, yaqin orada kelib qoladi.

— Men Qamashidan Suyarboyni kiga to'yga chaqirib keldim, o'zi bo'lmasa aytib qo'yarsiz, falon kuni borsin, qarindoshlari, o'g'il-qizlari barchasi. Endi meni ushlamang, kelin, hali to'yga yetib borishim kerak, — deb ot ustida turib shunday deydi:

*To'yga aytib keldim Norpaydi,
Mollarda ko'rdim chorpaydi.
Meni ko'p ushlamang bunda,
Ob chiqaybering sorpaydi.*

O'sha vaqtlarda to'yga aytib kelganlarni "aytuvchi" deyishgan, ularga xabar yetkazgani uchun "sarp", ya'ni to'n, ko'ylak yoki bir-ikki metr mato berishgan. Boyning xotini ham qo'li ochiq ayol ekan, yaxshi bir chopon beradi.

*Qulli bo'sin to'ningiz,
Xursan bo'ldi iningiz,
O'g'il-qizlarni olib,
Erta to'yga boringiz.*

To'nni kiygan "aytuvchi" orqaga qaytadi. Yo'l-yo'lakay boy bobo bilan boybichani maqtab ketib borayapti:

*Qo'li ochiq, saxiy ekan,
Monov boyning zavjasi.
Shundanmi doim to'la,
Boy otamning g'aznasi.*

Shunday qilib, aytuvchilikka ketgan Fayzi shoir yo'lma-yo'l, qishloqlarni oralab qo'shiq aytib yurib, to'ydan to'rt kun o'tib yetib kelgan ekan.

— Afsuski, Fayzi shoirning boy adabiy merosini asrab qololmadik, — deydi o'g'li Moyli Berdiyev. — Otamdan biror-bir yozma manba qolmagan. O'tgan asrning 80-yillarida Qarshi davlat pedagogika instituti o'qituvchisi Abdimo'min Qahhorov talabalari bilan folklor-etnografik ekspeditsiya payti kelib, baxshining merosini magnit lentalariga tushirib olgan edi. Oradan yillar o'tdi, surishtirib borsam, domla olamdan o'tgan ekan. Qizi Shahnoza bilan bog'landim, telefonda gi suhbatimizda u "otamning uyida bir necha jomadon magnit lentolari bor edi, borib ko'raman" dedi. Keyin esa ko'p yillar ishlatilmay turgan magnit tasmlar yaroqsiz holga kelib qolgani, ulardan foydalanib bo'lmasligini aytdi. Taassuflar bo'lsinki, qog'oz variantlarini ham topolmadik.

Bir necha yil muqaddam Qashqadaryo baxshichilik maktabiga bag'ishlangan bir kitobda "Qamashidan Fayzi shoir Berdi o'g'li" degan ma'lumotni o'qigandim, xotiram pand berdimi, manbani aniq eslolmadim. Shu mavzuda adib va noshir Temurpo'lat Tillayevga, viloyatdagi Xalqaro "Oltin meros" jamg'armasi raisi Sharofat Ashurovaga ham murojaat qildim, hozircha natija bo'lmadi, izlanishda davom etamiz...

Zamonlar o'tadi, avlodlar almashtadi, ko'p narsa va voqealar unutiladi. Ammo shoir-baxshilar ijodi namunalari abadiy qoladi, asrlar davomida xalqning xotirasida yashaydi. Fayzi shoir ham Qamashi ahli tomonidan iliq xotiralar bilan yodga olinadi. Uning boy ijodiy merosi ham kun kelib tiklanishiga ko'nglimda bir umid bor. Zero:

*Oqqan daryo oqmay qolmas,
O'zaniga qaytmay qolmas...*

Eshto'xtar ELMURODOV,
ta'lim faxriysi,
"Shuhrat" medali sohibi

"Burun o'tgan zamonlarda, el-yurti omonlarda, mag'rib yo mashriq tomonlarda, Xorazmdan, Turkmandanma, Chambil yoxud Chilbirdanma so'ylayin? Go'ro'g'limi, Alpomishdan kuylayin?..",

Kitobingizni o'qiding

EZGULIK IZLAB...

“Adiblar”, “Kitob o'qish odobi”, “Qo'lyozmadan kitobgacha” nashrlari muallifi Davron Ulug'murodning **“Kunbotishdagi uy”** kitobini qiziqish bilan o'qib chiqdim. Nashrdan bir qissa, shuningdek, hikoya, pyesa, esse va tarjimalar o'rin olgan. Kitobga taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor Uzoq Jo'raqulov **“Samimiyat sirlari”** sarlavhali so'zboshi yozgan.



Ziyoda G'AFFOROVA,
Toshkent amaliy fanlar
universiteti dotsenti,
“Shuhrat” medali sohibasi

Yozuvchi kitobini otasi Jumaboy Ulug'murod o'g'li, onasi Noroy Berdimurod qizi hamda ammasi Qizlarjon Ulug'murod qizi xotirasiga bag'ishlagan. Bu bejiz emas.

To'planning boshida berilgan **“Onam tashlab ketgan kun”** nomli xotirani ko'zda yosh bilan o'qiding. Unda onasidan ayrilganidan keyin uni qattiq qo'msayotgan o'g'ilning yurak dardlari samimiy ifoda etilgan. Yozuvchi onasining janozasi chog'ida “Oллоh-u akbar” aytilgan payti oppoq kapalak old saf uzra charx urib, ko'zdan g'oyib bo'lgani haqida: **“Shu kapalak ham onajonimni so'nggi yo'lga kuzatgani kelgandek edi go'yo”**, deb yozadi.

Kapalak bilan bog'liq bunday voqea mening ham onamdan ayrilgan kunimni yodga soldi...

“Men – g'ofil o'g'il” sarlavhali xotirada muallif onasining ruhiga Qur'on tilovat qilishni biroz kamaytirganini, bomdod namozini o'qishga kirishgan paytda esa yana o'sha oppoq kapalak uchib kelib, charx urib ko'zdan g'oyib bo'lganini ta'sirchan tasvirlaydi. “Bu kapalak menga onamni eslat-gani kelgandek edi”, deya yozadi u.

Har qanday banda uchun onadan ayrilish og'ir sinovdir. Bu g'amni yengish oson emas. Ana shunday damlarda inson onani har tomondan izlay boshlaydi.

Ota-ona vafotidan keyin ham farzandning ular oldidagi burchlari davom etadi. Shulardan biri duo orqali ularning ruhini shod etishdir. Yozuvchi bu fikrni o'quvchiga tabiiy va ta'sirchan tarzda yetkazadi.

“Men – g'ofil o'g'il” xotirasida qahramon onasi tomonidan **“Qo'zjon”** deb erkalab tilga olinadi. Muallif onasidan ayrilish iztiroblarini tasvirlar ekan, farzandlik burchi va pushaymonlik tuyg'ularini ham teran ochib beradi.

Qo'zjon ijarada yashab yurgan kezlarda onasi Toshkentga keladi. Ona-bola metroga tushishadi. Qarshilarida o'tirgan yoshi kattaroq ikki kishi ularga qarab o'zaro pichirlashadi. Muallif shunday yozadi:

“Onam: “Yo'lda anavi ikki odam sen haqingda pichir-pichir gaplashishdi, nima deyishganini bilmadim”, dedi. Aslida onam ularning gapini aniq eshitmagan bo'lsa-da, hammasini tu-shungan edi. Meni ayab, yana bolam xijolat bo'lib qolmasin, deb, gapni davom ettirmadi”. Ushbu lavhada yozuvchi barcha onalarga xos fazilat – farzandini ayash tuyg'usini dard bilan tasvirlagan.

Qo'zjon ham barchasini tushunadi. Ertasiga bozorga borib, onasiga sovg'alar olib beradi. O'g'lining himmatini qishloq-doshlariga faxr bilan aytib yurgan ona endi yo'qligini anglagan kitobxon muallifning ichki iztiroblariga beixtiyor sherik bo'ladi.

Inson yoshi ulg'aygan sari bolaligini ko'proq sog'inadi. To'plamdagi yagona qissa – **“Kunbotishdagi uy”** bilan tanishar ekansiz, bunga yana bir bor amin bo'lasiz. Qo'zjon bu qissada ham bosh qahramon sifatida gavdalanadi. O'quvchi uning prototipi muallifning o'zi ekanini sezadi. Demak, asardagi ota-ona va amma ham yozuvchining yaqinlari. Voqealarning aksariyati hayotiy asosga ega. Shu bois asarni bemaol avtobiografik qissa deb atash mumkin.

Qissa alohida sarlavhalar bilan ajratilgan fasllardan tashkil topgan. Bu esa o'qishni yengillashtiradi va muallif g'oyasini izchil ochishga xizmat qiladi. Asar ravon, sodda va samimiy tilda yozilgani bois voqealar mazmunini anglash kitobxon uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

Asarda mashhur bolalar adibi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev ijodiga xos ayrim jihatlar seziladi. Keyinchalik bilsam, u kishi Davron Ulug'murodning ustoz bo'lgan ekan.

Bugungi globalashuv sharoitida ma'naviy tahdidlar ta'sirida ota-ona va farzandlar, aka-uka, opa-singillar hamda qarindosh-urug'lar o'rtasidagi mehr-oqibat susayib borayotgan bir paytda bunday asarning chop etilishi ayni muddaodir.

Asarda ota-ona, amaki, amma, aka, opa, uka, pochcha, qo'shni, ustoz va boshqa yaqinlar haqi-dagi xotiralar kitobxonni ramziy ma'nodagi kunbotishdagi uy tomon yetaklaydi. Bu yo'l ezgulik va yovuzlik, mehr va sinovlar o'rtasidagi kurash orqali kechadi. Oxir-oqibat esa ezgulik g'alaba qiladi.

Hayot sir-u sinoatlarga boy. Asardagi **“ajinatom”** deb atalgan uy bilan bog'liq tasvirlar ham ana shunday g'aroyib hodisalardan biridir. Bu uy yonidan o'tayotganda nafaqat bolalar, balki kattalar ham cho'chishgan. Bir gal bolalar ajinatom oldida o'yinga berilib, shom tushganini sezmay qolishadi. Shunda ajinatomdan qizil, sariq va yashil rangdagi kurrachalar chiqib keladi. Holbuki, hayotda bunday rangdagi xo'tiklar uchramaydi.

Yozuvchining bu tasvirlari menga Karmana tumanidagi **“Uch tut”** ziyoratgohida guvohi bo'lgan bir voqeani eslatdi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

Navoiy viloyati bo'limining marhum rahbari Furqat Yo'ldoshev boshchiligida targ'ibot guruhi a'zolari bilan qadimiy uch tutni ziyorat qilgan edik. Kutilmaganda tutlardan birining katta shoxi sinib, naq yonimizga tushdi. Yaxshiyamki, hech kim zarar ko'rmadi. Shunda singan shox atrofida to'q jigarrang, qora, osmonrang, oq va sariq rangdagi uloqchalar paydo bo'ldi. Ular osmondan tushdimi yoki yerdan chiqdimi – hech kim bilmadi. Bunday rangdagi uloqchalarni ilgari hech birimiz ko'rmagan edik. Eng ajablanarlisi, ular bir lahzada g'oyib bo'lishdi. Qayoqqa ketganini ham anglay olmadik. Hammamiz beixtiyor kalima qaytardik. So'ng duoyi fотиha qilib, ziyoratdan qaytdik.

Yozuvchining xotirasida muhrlanib qolgan **“Ajinatom”** tasvirlaridan ta'sirlanib, menga o'xshab sir-sinoatga boy maskanlarimiz bilan bog'liq yana qancha voqealarni qalamga oladiganlar topilishi aniq.

Qissaning **“Meni maktabga olishmagani”** faslida tasvirlanishicha, Qo'zjonning maktabga in-tilishi, Soatmurod muallim tomonidan sinfxonaga qo'yilmay, eshikdan qaytarilishi dastlab o'quvchini hayratga soladi. Biroq voqealar rivoji davomida buning asl sababi oydinlashadi.

Qo'zjonning Qizlarjon ismli ammasi bor. U Mavluda ismli qizidan judo bo'lgach, Xudo unga boshqa farzand bermaydi. Otasi Qo'zjonni ammasinikida yashab, o'qishga ko'ndirish uchun Soat-murod muallim bilan kelishib, uni maktabga qabul qilmaslikni oldindan tayinlagan ekan.

Maktab mojarosi zahirida farzandsizlik tufayli hayotidan halovat topolmayotgan ammasiga Qo'zjonni o'g'il qilib berish niyati yotardi. Bu, bir tomondan, nurab borayotgan oilani saqlab qolish, er-xotinni tushkunlikdan chiqarish yo'lidagi oqilona qaror edi. Ikkinchi tomondan esa hali ko'p narsaga aqli yetmaydigan bolani shunchaki ammasinikiga yuborish uning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishini hisobga olgan holda topilgan yechim edi. Qo'zjon ammasining qishlog'idagi maktabga borishini eshitib, chehrasi yorishib ketadi. Yozuvchi opa-singil va aka-ukalar o'rtasidagi mehr-oqibat, insoniylik va oqibat tuyg'ularini ana shunday badiiy ifoda bilan tasvirlagan.

Qissaning **“Kunbotishdagi uy”** deb nomlanishi orqali kitobxon yoshgina bolaning ota-ona bag'rini tark etishi, kunbotar tomonda joylashgan uyini, ota-onasi hamda aka-ukalarini sog'inish iztiroblarini chuqur his qiladi va unga hamdard bo'ladi.

“Ammamlarnikida” faslida qahramon ota-onasi bag'rida shodon yurgan, erkin va yayrab o'ynagan kunlarini eslab, o'kinadi. Hatto o'ziga: **“Ota-onam meni asrab olishganmikan? O'gaymikinman?”** degan savollarni ham beradi.

“Ajrashish” faslida yozuvchi shom manzarasi orqali uy sog'inchini ta'sirchan tasvirlaydi. Qo'xonaning baland devoriga chiqib, uyi tomon o'kinch bilan boqayotgan bolakayning janjal bo'layotgan uyga kirgisi kelmaydi.

Quyosh botishini kuzatayotgan bolakayning ko'zlaridan yosh shashqator oqadi. Nazarimda, bu ko'pchilikka xos tuyg'u bo'lsa kerak. Bolaligimda quyosh



botayotgan mahal mening ham qalbimni g'amginlik va tushkunlik chulg'ab olar edi.

Qorong'i tushgach, uyga kirsam, ammasi jiyaniga: **“Otanglarnikiga boramiz”** deydi. Bolakay avvaliga: **“Uyimga ketgim kelayotganini ammam qanday bildilar ekan?”** deya o'ylanadi. Ammo ota uyiga borish quvonchi bu o'ylarning barchasidan ustun keladi. Uyga borish oldidan qand-qurs solib tayyorlanadigan ammaning bu gal Mavluda qizining devorda osig'liq surati va hali yap-yangi paltosini tugishi juda ta'sirli tasvirlangan. Chunki u bu safar erining uyidan butunlay ketayotganini bolakay keyinroq anglaydi.

Qissaning **“Men ishchiman – go'ng tashuvchi”, “Tushlik”, “Xat”, “Kostyum-shim kiymoqchi bo'lganim”, “Qaytish”, “Ko'nikish”** fasllarida otasining aybsiz holda mushkul ahvolga tushib qolishi tufayli butun oilaning boshidan kechirgan qiyinchiliklari hayotiy voqealar asosida tasvirlangan.

Yozuvchi bugungi kunda unutilib borayotgan ko'plab so'zlarni mahorat bilan qo'llagan. Buni uning adabiy til boyligini namoyon etish yo'lidagi yutug'i, deb o'ylayman. Hatto – adabiyotshunos olim sifatida menga ham notanish bo'lgan **“urak”, “vardish”, “qonjaloq”, “sovoq”** kabi so'zlarning ma'nosini bilib oldim.

“Qorako'z” hikoyasining bosh qahramoni – chumoli. Gap shundaki, farzandsiz bir oilaning Baxt ismli asrandi qizi bor. Ammo qiz o'zining asrandi ekanini bilmaydi. Bir kuni maktabda bolalar uni shu bilan kamsitishadi. Ana shundan fojia boshlanadi. Qizcha har kuni maktabdan qaytayotganida muyulishda sochlari o'zinikidek tillarang, ko'zlari chiroyli, ammo ma'yus boqadigan ayol kutib turishining sirini asta-sekin anglay boshlaydi.

Qizcha dardlarini shu uydagi chumoliga aytadi va unga **“Qorako'z”** deb laqab qo'yadi. Muallif chumoli timsoli orqali o'zining hayotiy kuzatishlarini badiiy ifodalaydi.

Bir kuni erta saharda chumoli hovlidagi g'ala-g'ovur va yig'i-sig'idan uyg'onib ketadi. Bu yog'ini asarning o'zidan o'qiylik: **“Odatda sokin bo'ladigan hovlida odam gavjum...”** (55–56-betlar).

Shu yerga kelganda o'quvchining yuragi hapriqib, **“Nahotki shunday bo'lsa?”** deya hayajonga tushadi. Men ham aynan shunday holatni boshdan kechirdim. Ammo keyin ma'lum bo'ladiki, bu Qorako'zning tushi ekan. Beixtiyor: **“Xayriyat!”** deb yuborasiz.

Eng muhimi, Davron Ulug'murod asarlarining qahramonlari oddiy qishloq odamlari. Voqealar dagi tabiiylik va ifodadagi samimiylik ham aynan shundan kelib chiqadi. Muallifning oddiy insonlar orasida voyaga yetgani, beg'ubor muhitda ulg'aygani uni qo'liga qalam olishga undagan bo'lsa, ajab emas.

Soddalik, ochiqlik, samimiylik va beg'uborlikni sog'ingan barcha kitobxonlarga ushbu kitobni mutolaa qilishni tavsiya etaman. Yozuvchidan esa bundan-da yangi va salmoqli asarlar kutib qolamiz.



Sinab ko‘ring

QAHRAMON RUHIYATIGA SAYOHAT



Adabiyot darsi o‘quvchiga badiiy asar mazmunini anglatish bilangina cheklanmaydi. Bu jarayonda o‘quvchi asarda tasvirlangan inson xarakterini anglashi, qahramonning xatti-harakati, ruhiy kechinmalari va ma’naviy olamini tahlil qilish orqali hayotiy xulosa chiqarish ko‘nikmasini egallashi lozim.

Qahramon xarakterini tushuntirishda faqat uning qilgan ishlarini sanab o‘tish yetarli emas. O‘quvchi “Nega qahramon aynan shunday yo‘l tutdi?”, “Uning bu qaroriga nima sabab bo‘ldi?”, “Qahramonning qaysi fazilatlarini ibratli, qaysi jihatlari esa tanqidiy baholanishi kerak?” kabi savollar ustida mustaqil fikr yurita olishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchini tayyor xulosani qabul qilishdan ko‘ra, obraz mohiyatini o‘zi anglashga undaydi.

Shu jihatdan adabiyot darslarida interaktiv metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “Xarakterlar diagrammasi” va “Psixolog” metodlari badiiy obrazni turli nuqtayi nazardan ochib berish imkonini beradi.

“Xarakterlar diagrammasi”

Bu metod orqali o‘quvchi obrazni shunchaki voqea ishtirokchisi sifatida emas, balki ma’naviy qadriyatlar tashuvchisi sifatida baholashga o‘rganadi.

Metod obrazlar xarakterini vizual diagramma orqali ochishga asoslanadi. Diagrammada obrazlar pastdan

yuqoriga qarab joylashtiriladi. Joylashuv mezoni quyidagicha bo‘ladi:

- yuqori qism – eng yaxshi, ibratli insoniy fazilatlar mujassam bo‘lgan obraz;
- o‘rta qism – ijobiy va zaif jihatlari muvozanatda bo‘lgan obrazlar;
- pastki qism – kamchiliklari ustun bo‘lgan obrazlar.

Ushbu metod asarni o‘qib bo‘lgandan keyin, tahlil bosqichida qo‘llaniladi.

O‘qituvchi doskada yoki tarqatma varaqada diagramma shaklini tayyorlaydi. O‘quvchilar asardagi asosiy obrazlarni aniqlaydi. Har bir obrazning insoniy fazilatlarini muhokama qilinadi. Obrazlar diagrammaga axloqiy ustunlik darajasiga qarab joylashtiriladi. Har bir joylashtirish asar matni bilan asoslanadi. Yakunda umumiy xulosa chiqariladi. Metod individual, juftlikda yoki guruhda tashkil etilishi mumkin.

Baholash jarayonida quyidagi jihatlar hisobga olinadi:

- obraz xarakterini to‘g‘ri baholay olishi;
- fikrini dalil bilan asoslay olishi;
- muhokamadagi faolligi;
- xulosa chiqarish darajasi.

Ushbu metodni darsning asarni tahlil qilish, mustahkamlash va umumlashtirish bosqichlarida qo‘llash mumkin.

“Psixolog”

Bu metod natijasida o‘quvchi obrazni ayblash yoki oqlashga shoshilmaydi, balki uning ruhiy holatini tushunishga intiladi. Shu orqali obraz inson sifatida qabul qilinadi va unga insoniy empatiya bilan yondashiladi.

“Psixolog” metodi asar o‘qilib, asosiy voqealar aniqlangandan so‘ng qo‘llaniladi. O‘qituvchi bitta muhim obrazni tanlab, o‘quvchilarga quyidagi yo‘nalishda savollar beradi:

- obraz bu holatda nimani his qilgan bo‘lishi mumkin?
- uning bu harakatiga nima sabab bo‘lgan?
- ichki qo‘rquv, ikkilanish yoki ishonch qaysi joyda seziladi?

O‘quvchilar obrazning ruhiy holatini tahlil qiladi, fikrlarini asar matniga tayangan holda izohlaydi. Jarayon yakka tartibda, juftlik yoki kichik guruhda amalga oshirishi mumkin.

Baholash jarayonida to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobdan ko‘ra, fikrning mantiqli va asoslanganligi muhim hisoblanadi. Quyidagilar e‘tiborga olinadi:

- obraz ruhiy holatini tushuntirib bera olishi;
- matndan dalil keltira olishi;
- empatiya bilan fikr yuritishi.

“Psixolog” metodi asosan asarni tahlil qilish bosqichida, obrazlar xarakterini chuqurlashtirish qismida qo‘llash uchun mosdir. Ayniqsa, murakkab ichki kechinmalar tasvirlangan sahnalarda samarali natija beradi.

Ushbu metod natijasida o‘quvchilar:

- obrazlarning ichki dunyosini anglaydi;
- sabab-oqibat bog‘lanishini tushunadi;
- empatiya va hissiy tafakkurni rivojlantiradi;
- insoniy holatlarga befarq bo‘lmaslikni o‘rganadi.

Namuna uchun:

Obraz – Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” asari qahramoni Azimjon.

Azimjonning ayrim holatlarda sukut saqlashi uning befarqligidan emas, balki ichki o‘y-xayollarga berilganidan dalolat beradi. U ko‘rgan voqealarini darhol baholamaydi, avval his qiladi, keyin xulosa chiqaradi. Bu holat Azimjon obrazining ruhiy yetilish jarayonida ekanini ko‘rsatadi.

Gulnora SATTOROVA,
Nishon tumanidagi
3-maktab o‘qituvchisi

Egamov Mirshohid Xolmurodovichning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari) ixtisosligi bo’yicha “Gidrologik ma’lumotlarning statistik tahlili asosida bo’lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko’chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Azimov Oybek Olimovichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo’yicha “Yer osti suvlari iste’moli natijasida jigarda kechadigan morfofunktsional o’zgarishlar va davo-profilaktikasiga yangicha yondashuv (Buxoro viloyati)” mavzusidagi(falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust kuni soat 11:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Usmanov Qobil G’affor o’g’lining 06.01.05 – Seleksiya va urug’chilik ixtisosligi bo’yicha “Yuqori va sifatli urug’lik sholi yetishtirishda turli ekish usullarining ta’sirini baholash” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko’chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Homidova Odina Qahhorjon qizining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Uzoq masofalarga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash texnologiyasi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2026.27.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Rozibayev Mirzaraxim Mirzakarimovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Gandbol sport turida malakali markaz o’yinchilarining hujum samaradorligini takomillashtirish uslubi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2026.27.12.Ped.02.01. raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Sultanxodjayeva Gavhar Abdumubdiyevnaning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo’yicha “HLA-II sinfi va ichak mikrobiotasini hisobga olgan holda o’zbek millatiga mansub bolalarda o’choqli alopetsiyaning genetik va mikrobiologik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Shifokorlar MFY, Forobiy ko’chasi, 530-uy.
Tel/faks: (71) 214-50-01; e-mail: dermatology.uz

Xalikova Nigina Ravshanovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo’yicha “Is gazining surunkali ta’siri natijasida yo’g’on ichak morfofunktsional ko’rsatkichlarining qiyosiy tavsifi va davolashda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Mirzayev Mirzabek Amrullo o’g’lining 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo’yicha “Amudaryoning rostlangan o’zanidagi gidravlik qarshiliklarni hisoblash usullarini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko’chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Inomov Dilmurod Islom o’g’lining 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo’yicha “Amudaryo quyi oqimida o’zanning morfologik parametrlarini hisoblash usullarini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko’chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Soliyev Firuz Furkatovichning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo’yicha “G’arb va Sharq detektiv adabiyotida jinoyatni fosh qilish jarayonining lingvopoetik va lingvomadaniy tadqiqi (Omon Muxtor va Stiven King asarlari misolida)” mavzusidagi(filologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-sentabr kuni soat 9:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14, 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz



Mening tajribam

“AKBARALI QISSASI”NI O‘QITISHDA

(9-sinf, adabiyot)

Asqad Muxtorning “Chinor” romani va uning tarkibidagi “Akbarali qissasi” inson taqdiri, adolat, vijdon, mas’uliyat, ota obrazi va jamiyat muammolarini chuqur badiiy tahlil qilgan asarlardan sanaladi. Ushbu asarni 9-sinf adabiyot darslarida o‘rganish o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lib, ularda hayotiy voqealarga ongli munosabat bildirish, shaxsiy pozitsiyani shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, Akbarali obrazi orqali insonning insoniy qolipda yashashi, ya’ni halollik, vijdon va haqiqatga sodiqlik masalalari dolzarb tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda o‘quvchilarni faqat voqea-hodisani qayta aytishga emas, balki badiiy matnni tahlil qilish, qahramonlar xatti-harakatini baholash, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni anglashga o‘rgatish muhim hisoblanadi.

Mazkur mavzu doirasida Asqad Muxtorning hayoti va ijodi, xususan, “Chinor” romanidan “Akbarali qissasi” o‘rganiladi. O‘quvchilarda quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi:

1. Adib haqida bilimlar: Asqad Muxtorning adabiyotdagi o‘rni, uning ijodiga xos mavzu va g‘oyalar.

2. Asar mazmuni va g‘oyasi: “Akbarali qissasi”ning sujeti va asosiy voqealari, asarda ko‘tarilgan ijtimoiy va ma’naviy muammolar.

3. Obrazlar tizimi: Akbarali obrazi – insoniy qolip, vijdon va haqiqat timsoli, ota obrazi – hayot tajribasi va ma’naviy tayanch, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar.

Qanday o‘qitiladi?

Asarni o‘qitish jarayoni bosqichma-bosqich, interaktiv va o‘quvchi markazli yondashuv asosida tashkil etiladi.

1-bosqich. Mavzuga kirish.

Muammoli savol: Inson har qanday vaziyatda ham insoniy qolipda qola oladimi?

O‘quvchilarning shaxsiy fikrlari tinglanadi.

2-bosqich. Adib bilan tanishtirish.

3-bosqich. Asarni o‘rganish.

Yozuvchi bilan tanishishning ta’limiy ahamiyati

Adib hayoti va ijodi bilan tanishtirish bosqichi “Chinor” romanidan “Akbarali qissasi”ni o‘rganishga tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Bu jarayon o‘quvchilarga muallif dunyoqarashi, davr ruhi hamda asarda ko‘tarilgan muammolarni to‘g‘ri idrok etish imkonini beradi.

Yozuvchi bilan tanishish jarayonida o‘quvchilar faqat biografik ma’lumotlarni emas, adibning adabiyotdagi o‘rni, ijodiga xos mavzular va g‘oyalarni ham anglab yetadilar. Bu esa keyingi mutolaa jarayonining samaradorligini oshiradi.

“Yig‘ma jild” metodi

Adabiyot darslarida o‘quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantirish muhim pedagogik talab hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan “Yig‘ma jild” metodi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilishi va bilimlarni tizimlashtirishiga xizmat qiluvchi samarali interaktiv usullardan biridir. Ushbu metodning asosiy mohiyati shundaki, o‘quvchilarga yozuvchi hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar tartiblanmagan holda taqdim etiladi va ular bu ma’lumotlarni mazmuniga ko‘ra ajratib, tegishli jildlarga joylashtirish orqali bilimni o‘zlari kashf etadilar.

Mazkur metod asarni o‘rganish jarayonida ayniqsa samarali hisoblanadi. Chunki bu bosqichda o‘quvchilar yozuvchi shaxsi va ijodini yaxlit holda anglab olishi,

uning roman va qissalarini farqlashi hamda mutolaaga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishi talab etiladi.

Metodni o‘tkazish tartibi:

Darsning kirish yoki yozuvchi bilan tanishish bosqichida o‘qituvchi sinfni 3-4 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi. Har bir guruhga alohida bo‘sh jild (papka) beriladi. Jildlar oldindan nomlanadi: biri romanlar uchun, ikkinchisi qissalar uchun, uchinchisi yozuvchining shaxsiy hayoti va ijodiy faoliyatiga oid ma’lumotlar uchun mo‘ljallanadi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi Asqad Muxtorga oid turli ma’lumotlarni kartochkalar shaklida tayyorlaydi. Ushbu kartochkalar orasida asar nomlari, hayotiga oid faktlar, ijodiga xos mavzular va qisqa izohlar bo‘ladi. Kartochkalar ataylab aralash holda o‘quvchilarga tarqatiladi.

O‘quvchilar kartochkalarni o‘qib, mazmuniga e’tibor qaratgan holda qaysi jildga mos kelishini aniqlaydi va tegishli jildga joylashtiradi. Guruhlar ishini yakunlagach, har bir jilddagi tanlovlar muhokama qilinadi. O‘qituvchi to‘g‘ri va noto‘g‘ri joylashtirilgan ma’lumotlarga izoh berib, umumiy xulosa chiqaradi.

Masalan, kartochkalarda roman, qissa, hikoya kabi janr nomlari yoziladi. O‘quvchilar tarqatmalarda yozilgan asar nomlarini kerakli jildga yig‘ishadi. “Yig‘ma jild” metodini amalga oshirish uchun o‘rtacha 2-3 daqiqa vaqt ajratish tavsiya etiladi. Ushbu vaqtning asosiy qismi guruhlar bilan ishlashga, qolgan qismi esa natijalarni muhokama qilish va umumlashtirishga sarflanadi.

“Rasmiy rebuslar” metodi

Bu metodning mohiyati shundan iboratki, yozuvchining asarlari nomlari bevosita matn ko‘rinishida emas, balki rasmlar, belgilar va ramzlar orqali ifodalalanadi. O‘quvchilar ushbu rasmlarni tahlil qilish, ularni bog‘lash va xulosa chiqarish orqali asar nomini mustaqil ravishda aniqlaydilar.

Metodni o‘tkazish tartibi:

Dars jarayonida o‘qituvchi Asqad Muxtor asarlari nomlariga mos rasmiy rebuslarni oldindan tayyorlaydi. Har bir rebus bir yoki bir nechta rasm orqali asar nomi-ga ishora qiladi. Masalan, daraxt rasmi, yo‘l, odam siymosi yoki ramziy belgilar yordamida asar nomi yashirin holda beriladi.

O‘qituvchi sinfni kichik guruhlar yoki juftliklarga bo‘ladi va har bir guruhga rasmiy rebus tushirilgan kartochkalarni tarqatadi. O‘quvchilarning vazifasi rasmlarni tahlil qilib, ular orqali qaysi asar nomi yashiringanini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Guruhlar o‘z xulosasini bildirgach, o‘qituvchi to‘g‘ri javoblarni aniqlaydi va har bir rebusning mazmunini qisqacha izohlaydi. Zarur hollarda asar haqida qisqa eslatma beriladi. O‘quvchilar rasmlarni bog‘lab, asar nomini topib, izohlaydilar. Bu jarayonda ularning mantiqiy va ijodiy fikrlashi faollashadi.

“Rasmiy rebuslar” metodiga dars jarayonida 4-5 daqiqa vaqt ajratish tavsiya etiladi. Vaqtning asosiy qis-


mi rebuslarni yechishga, qolgan qismi esa muhokama va umumlashtirishga sarflanadi.

Rebuslar	izoh

“Rasmiy rebuslar” metodi asosan darsning kirish qismida, yozuvchi bilan tanishish yoki mutolaaga tayyorlash bosqichida qo‘llaniladi. Metodni tasviriy san’at fani bilan bog‘lab, rasm talqini asosida ishlash, axborot texnologiyalari bilan integratsiya qilib, slayd yoki interaktiv taqdimot shaklida tashkil etish mumkin.

“Shajara daraxti” metodi

O‘quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasi bilan badiiy asar mazmunini bog‘lashga qaratilgan samarali metodlardan biridir. Bunda har bir o‘quvchi o‘z oilasining shajarasini daraxt shaklida tasvirlaydi va shu daraxtdagi eng muhim bo‘g‘in – shajara boshchisini aniqlaydi. Ushbu faoliyat orqali o‘quvchilar avlodlar davomiyligi, ildiz va shoxlar o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida mushohada yuritadi.



Mazkur metod asarning nega aynan “Chinor” deb nomlanganini ramziy va hayotiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi.



AN'ANA VA VORISIYLIK DIALEKTIKASI

(Davomi. Boshi 9-betda.)

To'ra Mirzayev bu orqali chinakam olimlik faqat minbarlarda so'zlash yoki kitoblar yozish bilan o'lchanmasligini, balki ilm-fan manfaati yo'lida eng xokisor vazifalarni ham buyuk iftixor bilan bajara olishda ekanligini ta'kidlaydi. Asardagi bu tahlil ilmiy vorisiylikning yana bir muhim shartini – keyingi avlodlarga bilim bilan birga mehnatsevarlik, kamtarlik va ilmga beminnat xizmat qilish go'zalligini uzatish fazilatini namoyon etadi.

Ilm-fan tarixi faqat silliq yutuqlardan iborat emas. Mustabid tuzum va siyosiy tazyiqlar hukmron bo'lgan davrlarda olimning o'z ilmiy vijdonini saqlab qolishi eng murakkab axloqiy sinov hisoblanadi. To'ra Mirzayevning xotira-tadqiqotida bu sinov ikki xil qarama-qarshi holat – haqiqatni himoya qilish jasorati va siyosiy qarashlarga aldanish fojiasi(so'ngra undan poklanish) misolida g'oyat teran tahlil etiladi.

Birinchi holatda chinakam ilmiy axloq va do'stga sadoqat namoyon bo'ladi. 1950-yillar boshlarida "Alpomish" dostoni va uning tadqiqotchilariga nisbatan asossiz siyosiy quvg'inlar boshlanganda, akademik V.M. Jirmunskiy o'z hayoti va martabasini xavf ostiga qo'yib, do'sti hamda hamkori Hodi Zarifni himoya qilib Fanlar akademiyasiga xat yozadi. U kitobdagi siyosiy ayblovlarga sabab bo'lgan barcha o'rinlarni o'z bo'yniga olib, o'zbek olimini himoya qiladi. Muallif bu voqeani shunchaki do'stlik emas, balki V.M. Jirmunskiyning "Olimlik vijdonim shuni taqozo etgandi... Bu do'st, hamkor oldidagi vijdoniy burchdir" degan so'zlari orqali ilmiy mas'uliyatning eng oliy ko'rinishi sifatida baholaydi. Demak, ilm-fan tarixini faqat kashfiyotlar emas, balki olimlarning mana shunday axloqiy mardonavorligi yaratadi.

Bunga qarama-qarshi o'laroq, asarda yosh tadqiqotchining hukmron siyosiy muhitga aldanib, ilmiy haqiqatdan chekinishi va keyinroq bu xatosini anglab yetishi jarayoni (Oxunjon Sobirov qismati) ko'rsatiladi. Yosh tadqiqotchi dastlab yolg'on mafkuraga ergashib, Islom sho'irni "Nigor va Zamon" dostonini buzib kuylashga, unga sun'iy ravishda inqilobiy ruh berishga undaydi va asl xalq ijodini soxtalashtiradi. Ammo ustozlarning (G'afur G'ulom va Hodi Zarif) qat-

tiq tanbehidan so'ng, u o'z xatosini mardlarcha tan oladi va butun umrini haqiqiy xalq ijodini, jumladan, "Yozi bilan Zebo", "Kelino'y" kabi asarlarni toza holda to'plashga bag'ishlaydi.

To'ra Mirzayev bu o'rinda ilmiy maktabning ichki quvvatini va haqiqat mezonini namoyish etadi. Ilmiy muhit nafaqat bilim beradi, balki olimni tarbiyalaydi, uni yolg'ondan qaytaradi va haqiqat yo'lga soladi. Bu holat – ilmdagi axloqiy poklanish va asl ilmiy haqiqatning har qanday o'tkinchi mafkuralardan ustun ekanligini tasdiqlovchi go'zal falsafiy xulosadir.

Ilm-fan tarixida biror ilmiy maktabning yashab qolishi uning qolipga tushib qolmasligi, balki muttasil kengayib, boshqa sohalar bilan uyg'unlashib borishiga bog'liq. Chin ma'nodagi ilmiy vorisiylik ustozlarning yo'lini ko'r-ko'rona takrorlash emas, balki ular yaratgan poydevor ustida yangicha qarashlarni shakllantirishdir. Ilmiy maktab xuddi tirik organizm kabi o'sishi, shoxlashi va muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishishi shart. Ustoz To'ra Mirzayev o'z asarida o'zbek folklorshunosligining ana shunday kengayish va yangi uflarni kashf etish jarayonini atqoli olimlar – musiqashunos Fayzulla Karomatov hamda san'atshunos Muhsin Qodirov faoliyati misolida g'oyat keng va teran tahlil qiladi.

Xalq ijodi faqatgina qog'ozga tushirilgan quruq matn yoki so'zlar yig'indisi emas. U tirik ovoz, ohang va harakatdan iborat yaxlit, jonli tizimdir. Muallif Fayzulla Karomatovning ilmiy yo'lini yoritgan ekan, folklori musiqa va navodan ajratib o'rganib bo'lmazligini falsafiy jihatdan asoslaydi. Olimning yarim asrlik mehnati natijasi bo'lgan ko'p jildli "O'zbek xalqi muzika merosi" tadqiqotlari oddiygina kuylar to'plami emas edi. Fayzulla Karomatov har bir asarni "cholg'u – sozanda – kuychi – kuy – matn" birligida voqe bo'ladigan yaxlit go'zallik hodisasi sifatida tahlil etdi. To'ra Mirzayev buni shunchaki musiqashunoslikdagi yutuq emas, balki umumiy ilmiy maktabning dunyoqarashi kengaygani, xalq ruhiyatini tirik holidagi (matn va ohang yaxlitligida) saqlab qolishdagi yangi bosqich sifatida yuksak qadrlaydi. Bu – fanning o'z qobig'idan chiqib, boshqa sohalar bilan tabiiy birlashuvini ta'minlagan buyuk burilish edi.

Shuningdek, kitobda Muhsin Qodirov faoliyatining tahlil qilinishi ilmiy tafakkurning yana bir yangi ufqqa chiqqanini ko'rsatadi. Ungacha folklor, asosan, adabiyotshunoslik doirasida, ertak yoki doston sifatida o'rganilgan bo'lsa, Muhsin Qodirov xalq ijodiga tomosha san'ati – an'anaviy teatr sifatida yondashdi. U yuzlab qiziqchilar, dorbozlar, masxarabozlar va qo'g'irchoqbozlarning ijro usullarini, og'zaki dramaning ichki qonuniyatlarini chuqur o'rganish orqali folklor ijrochisini nafaqat matn yaratuvchisi, balki mahoratli aktyor va rejissyor darajasiga ko'tardi. Asarda ushbu izlanishlarning yuksak baholanishi folklori faqat adabiyotning bir qismi deb biladigan eski qarashlarni parchalab, uni keng qamrovli madaniyat va san'at hodisasi sifatida tan olish falsafasini ifodalaydi.

Demak, To'ra Mirzayevning ilmiy mushohadalari orqali biz fanda avlodlar davomiyligi va ilmiy maktabning yashab qolishi turli sohalarining (adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, teatrshunoslik) bir maqsad yo'lida birlashishi, ya'ni fanlararo uyg'unlik orqali millatning yaxlit ma'naviy qiyofasini kashf etish qudratiga ega bo'lishi to'g'risidagi yana bir muhim haqiqatni anglaymiz. Ilmga berilgan bunday keng qamrovli baho muallifning naqadar teran faylasuf va maktab yaratuvchi ustoz ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Ilmiy maktabning chinakam kamoloti uning milliy qobiqda o'ralib qolmasdan, umumbashariy ilm-fan bilan uyg'unlashib ketishida namoyon bo'ladi. Ilmiy vorisiylik va an'analar millat va chegara tanlamaydigan buyuk hodisadir. To'ra Mirzayev o'z kitobida bu jarayonni olmon olimi, Bonn universiteti professori Karl Rayxl faoliyati misolida tahlil qiladi. Milliy an'analarning jahon ilmiy doiralariga chiqishi va dunyo olimlari bilan hamkorlik masalasi asarning mantiqiy cho'qqilaridan biri hisoblanadi.

Asarda tasvirlanishicha, Karl Rayxl shunchaki xorijlik kuzatuvchi emas, balki o'zbek folklorshunosligi maktabining bevosita ishtirokchisiga va uni Ovrupo ilmi bilan bog'lovchi ko'prikkaga aylanadi. Olmon olimining o'zbek va qoraqalpoq tillarini o'rganib, millatning bebaho qadriyatlarini bo'lgan "Alpomish", "Edige" kabi dostonlarni nemis va ingliz tillariga tarjima qilishi



hamda ularni Yevropa universitetlarida taqdimot qilishi ulkan ilmiy hodisa sifatida qadrlanadi. To'ra Mirzayev Karl Rayxlga baho berar ekan: "Karl Rayxl O'zbekiston folkloristika maktabini Yevropa ilmi bilan bog'lagan o'ziga xos original olimdir... O'zbek va qoraqalpoq folklorshunoslarining... tadqiqotlari Karl Rayxlning beqiyos ilmiy-ijodiy faoliyati tufayli nemis, ingliz va fransuz tillari orqali dunyo miqyosiga chiqdi", deya ta'kidlaydi. Bu esa haqiqiy bilim va ilmiy mehnatning umuminsoniy qadriyatga aylanishini tasdiqlovchi falsafiy qarashdir.

Guvohi bo'lganimizdek, akademik To'ra Mirzayevning "Ustozlar, safdoshlar, izdoshlar" kitobi shunchaki o'tmish xotiralari yoki tarjimai hollar to'plami emas. U ilm-fanda avlodlarning ruhiy-ma'naviy uzviyligini, ilmiy bilimning ustozdan shogirdga o'tish ichki qonuniyatlarini va tadqiqotchining jamiyat hamda tarix oldidagi mas'uliyatini ochib beruvchi mukammal falsafiy-tarixiy asardir.

Muallif kitobdagi qahramonlar (ustozlar, tengdoshlar va shogirdlar) siymosini yaratish orqali, aslida, chinakam olimning, fidoyi va xokisor insonning umumlashgan qiyofasini yaratgan. Bu asar orqali biz ilm-fanda bardavomlik faqatgina quruq nazariyalarni yodlash bilan emas, balki ustozlarning ilmga sadoqati, insoniyligi va ilmiy vijdonini qalban qabul qilib olish hamda uni jahon miqyosiga olib chiqish orqali ta'minlanishini teran anglaymiz.

Munisjon HAKIMOV,
O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi Nodir
qo'lyozmalar bo'limi mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6177. Tiraji 6545.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mual-
lfiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.